

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI

O'ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

IV “B” guruh talabasi G'ofurova (To'raqulova) Saodat Bahodirjon qizining

5111200 – o'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi bo'yicha
BAKALAVR darajasini olish uchun

“O'ZBEK TILIDA LEKSIK OKKAZIONALIZMLAR” mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

O.TO'XTASINOVA
filol.fanl. nomzodi, dotsent

QO'QON -2014

M U N D A R I J A

	ISHNING UMUMIY TAVSIFI.....
1- BOB	LEKSIK OKKAZIONALIZMLAR TUSHUNCHASI VA ULARNING OKKAZIONALIZMLAR TIZIMIDAGI O'RNI.....
1.1	Okkazionalizmlarning leksikografik talqinlari
1.2	“Tasodifiy”, “favqulodda yaratilgan” so'zlarni nomlashga doir terminlar.....
1.3	Neologizm va okkazionalizmlarning o'zaro munosabati
1.4	Okkazional so'zlarning o'ziga xos xususiyatlari.....
1.5	Okkazionalizm, okkazional so'z, okkazionallik va potentsionalizm, potentsiallik tushunchalari haqida.....
1. 6	Okkazionalizm va lisoniy norma munosabati..... Birinchi bob yuzasidan xulosa.....
2-BOB	OKKAZIONALIZMLARNING BADIY-ESTETIK VAZIFASI.....
2.1	Okkazionalizmlarning nutqiy vazifasi
2.2	Okkazionalizmlarning baholash vazifasi
2.3	Okkazionalizmlarning badiiy-estetik vazifasi.....
2.4	Okkazionalizmlarning obrazlilikni ifodalash vazifasi
2.5	Badiiy nutq okkazionalizmlarida sinonimiya.....
2.6	Okkazionalizmlarning kommunikativ turlari..... Ikkinchi bob yuzasidan xulosa..... Umumiy xulosalar
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Til doimiy ravishda yangi lug'aviy birliklar hisobiga boyib boradi. Hech bir so'z kommunikativ ehtiyojsiz tug'ilmaydi. Ammo yangi paydo bo'lgan so'zlar tildagi mavqeiga ko'ra farqlanadi. Har qanday yangi paydo bo'lgan lisoniy birliklar til tizimida o'z o'rniga ega bo'lishi yoki ega bo'lmasligi mumkin. Lug'at tarkibida o'z o'rniga ega bo'lmasdan yakka (individual) nutqqa xos va o'sha nutq (matn) doirasidagina qolib ketadigan, tasodifiy, ya'ni favqulodda yaratilgan va ko'pincha lisoniy aloqa jarayonida atigi bir martagina qo'llanadigan so'zlar borki, ular hamisha yangiligi, g'ayritabiiy tuyulishi, betakrorligi, adabiy normadan tashqarida bo'lishi bilan ajralib turadi. Bunday so'zlarni xalq va til ijodkorlari yaratadi. Xalq yaratgan so'zlar tilshunoslikda *og'zaki nutq okkazionalizmi*, ma'lum ijodkorlar tomonidan yaratilgan so'zlar esa individual - yakka nutqqa xos, ya'ni *badiiy okkazionalizmlar* deb yuritiladi.

Okkazional so'zlar so'zlovchi yoki ijodkorlar tomonidan o'z fikr va maqsadini o'ziga xos tarzda va aniq ifodalash, o'zlari tasvirlayotgan biror shaxs, narsa, obyekt, voqea-hodisalarni barcha qirralari bilan namoyon etish hamda ularga nisbatan bo'lgan o'z munosabati, ya'ni his-tuyg'ularini yorqin ifodalash maqsadida yaratiladi va qo'llanadi. Okkazionalizmlar tasvir obyektini tavsiflashda tildagi imkoniyatlar nutq egasini qanoatlantira olmaganida yaratiladi.

Okkazionalizmlar bir marta qo'llanishi va o'ta ta'sirchanligi, obraz yaratishda nihoyatda qulayligi bilan til birliklaridan farqlanib turadi. Okkazional so'zlarning o'ziga xos vazifalari, xususiyatlari mavjudki, ular o'zbek tilshunosligida hali yetarli ravishda tadqiq qilingan emas. To'g'ri, okkazional so'zlar haqida o'zbek tilshunosligida anchagina fikrlar bildirilgan. Ayniqsa, S.Toshalievanning o'zbek tilida okkazional so'zlarning yasalishiga oid

izlanishlari diqqatga molikdir¹. Lekin lug'aviy okkazonalizm maxsus tadqiqot obyekti qilib olinmagan va har tomonlama: fonetik, lug'aviy, morfologik jihatdan, shuningdek, og'zaki yoki yozma nutq ko'rinishlaridagi holati bo'yicha o'rganilmagan. Ayniqsa, lug'aviy okkazonalizmlarning o'ziga xos xususiyatlari, okkazonal so'zning tug'ilish sabablari, unga bo'lgan ehtiyoj, okkazonalizmlarning unga yondosh bo'lgan hodisalar – neologizm, sinonimiya, normal va nonormal leksik birliklardan farqi, okkazonal so'zlarning tilda ado etuvchi uslubiy, badiiy-estetik vazifalari, bu tip so'zlarning til lug'at sistemasiga munosabati kabi muammolar o'z tadqiqini kutmoqda. Keltirilgan mulohazalar ushbu dissertatsiya mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Til lug'aviy tarkibining shakllanishi va rivojlanishi jarayonlarini o'rganish o'z tarixiga ega. Bu masalaga bag'ishlangan ishlarda okkazonal so'zlarga e'tibor berib kelinadi. Rus tilshunosligida okkazonal so'zlarni neologizmlardan ajratib o'rganishga XX asrning 50-yillaridan kirishildi. Rus tilshunosligida N.I. Fel'dman birinchi bo'lib okkazonal terminini qo'llagan. U okkazonal so'zlarni so'z yasalishining mahsuldor tiplari asosida vujudga keladigan va ma'lum matnga xos ma'no ifodasiga ega bo'lgan lisoniy birliklar sifatida izohlaydi². Er.Xanpiraning V.V.Mayakovskiy ijodiga xos okkazonalizmlarni o'rganishga bag'ishlangan dissertatsiyasi birinchi monografik ish edi³.

O'zbek tilshunosligida bu mavzuga quyidagi yo'nalishlardagi tadqiqotlarda munosabat bildirilgan:

1. Biror shoir yoki yozuvchining so'z qo'llash mahoratiga bag'ishlangan ishlarda.
2. Adabiy til me'yorlari bo'yicha yaratilgan asarlarda.
3. Okkazonal ma'no va okkazonal so'z yasalishi haqidagi maqola va

¹ Тошалиева С.И. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши : Филол. фан. номзоди ... дис. –Т., 1998.

² Фельдман Н.И. Окказиональные слова и лексикография // Вопросы языкознания. — 1957. — № 4. —С. 66.

³ Ханпира Эр. Окказиональное словообразование В.В. Маяковского (отыменные глаголы и причастия): Автореф. дис. .. канд. филол. наук. -М., 1956.

tadqiqotlarda.

Q.Samadov, X.Abdurahmonov, N.Mahmudov, B.CHoriev, B.Yoriev M.Mirtojiyev, L.Abdullaeva, S.Karimov kabilar o'z tadqiqotlarida ma'lum bir ijodkorning so'z qo'llash mahorati masalasida okkazionalizmlarning o'rni va rolini qayd etib o'tgan bo'lsalar-da, uning leksik va badiiy-estetik xususiyatlari tahlil qilingan monografik ish o'zbek tilshunosligida hali yaratilmagan.

B.Umurqulov okkazional so'zlarni ijodkorning o'ziga xos uslubini belgilovchi omillardan biri sifatida talqin etadi¹.

Okkazional so'zlar va ularning adabiy normaga munosabati A.Mamatov tomonidan chuqur o'rganildi. Olim asosiy e'tiborni lingvistik norma muammosini hal etishga qaratarkan, "nonormal", "noqonuniy" bo'lgan okkazional so'zlar va iboralarga xos belgilarni misollar asosida tahlil qilib beradi².

Tadqiqotchi S.Mo'minov neologizm va okkazionalizmlarning xususiyatlarini qiyoslab, o'ziga xos bo'lgan farqli tomonlar haqida o'z qarashlarini bayon qiladi.³

O'zbek tilida okkazional so'zlarni izchil ilmiy asoslarda o'rganish XX asrning 90- yillari oxiriga to'g'ri keladi. S.Toshaliyeva "O'zbek tilida okkazional so'z yasaliishi"⁴ mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Bu ushbu muammoga oid birinchi monografik ish edi. Tadqiqotchi okkazional so'zlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida ham to'xtaladi. U okkazional so'zlarni to'rt tipga ajratadi: leksik okkazionalizmlar, semantik okkazionalizmlar, okkazional yasalmalar va okkazional ibora. Tadqiqot, asosan, okkazional so'zlarning yasaliishiga bag'ishlangan bo'lib, unda okkazional so'z yasaliishi usullari atroflicha yoritilgan. Bu ishning bizning tadqiqotimizdan farqli tomoni shundaki, unda ko'proq matbuot tili va barcha janrlarda uchraydigan okkazional so'zlarning

¹ Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси.— Т.: Фан, 1990; Ўша муаллиф. Бадий адабиётда сўз.—Т.: Фан,1993; Ўша муаллиф. Ўзбек бадий прозаси тилининг луғавий хусусиятлари: Филол. фанлари д-ри ... дис. автореф. —Т.: 1994.

² Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари: Филол. фанлари д-ри ... дис.— Т., 1991. —202-229 б.

³ Мўминов С. Окказионал нутқий номинацияда мотивациянинг роли: Филол. фанлари номзодидис. —Т., 1990.

⁴ Тошалиева С. Ўзбек тилида окказионал сўз ясаиши: Филол. фанлари номзоди ... дис. —Т.,1998.

yasalish strukturasi tahlil qilingan. Biz esa ko'proq e'tiborimizni badiiy nutq okkazionalizmlarini o'rganishga, bu tip birliklarning ma'noviy va badiiy-uslubiy vazifalarini yoritishga qaratdik.

BMI maqsadi. Ushbu ishning asosiy maqsadi o'zbek tilidagi lug'aviy okkazionalizmlarning lug'aviy xususiyatlari, matnlardagi badiiy-estetik vazifalarini o'rganishdir.

BMI vazifalari. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi masalalar qo'yildi:

- o'zbek tili badiiy matnlaridagi okkazional so'zlarni to'plash va ularni muayyan sistemaga solish;
- okkazional so'zlarning mohiyati, asosiy lisoniy, nolisoniy xususiyatlarini o'rganish;
- okkazional so'zning unga yondosh hodisalardan farqini aniqlash;
- okkazionalizmlarning til va nutq sistemasiga munosabatini belgilash;
- okkazional so'zlarning adabiy normaga munosabatini o'rganish;
- okkazional leksikaning badiiy matndagi badiiy-estetik vazifalarini yoritish hamda bu tip so'zlarning asar badiiyatini ta'minlashdagi o'rni va rolini baholash.

BMIning obykti va predmeti. Ishning tadqiq obyektini o'zbek tilidagi badiiy kontekstlarda uchraydigan okkazional so'zlar tashkil qiladi. Material hozirgi davr yozuvchilarining badiiy asarlari matnlaridan to'plandi. Nazariy manba sifatida hozirgi davr tilshunosligidagi dissertatsiya mavzuiga daxldor dissertatsiya, monografiya, risola va ilmiy maqolalar xizmat qildi.

BMIning tadqiq usullari. Ishning metodologik asosini til va tafakkur birligi, obyektiv borliq va lisoniy belgi munosabati, til evolyutsion rivoji kabi lisoniy-falsafiy qoidalar tashkil qiladi. SHuningdek, mavzuning ba'zi muammoli tomonlarini tahlil qilishda ushbu muammo bo'yicha tilshunoslikda mavjud nazariy qarashlarga tayanib ish tutildi.

Ishda tasvirlash, tavsiflash, sistem tahlil, qiyoslash, tasniflash kabi metod va usullardan foydalanildi

Ilmiy yangiligi. Ishda:

- o'zbek tilshunosligida lug'aviy okkazonalizmlar materiali to'plandi va lisoniy tadqiq qilindi;
- okkazonal so'zning mohiyati, uning boshqa lug'aviy birliklardan farqi belgilandi;
- okkazonal so'zning asosiy xususiyatlari: nutqqa bog'liqlik, ijodiylik, norma bilan munosabat, betakrorlik, ta'sirchanlik, majburiy bo'lmagan nominatsiya va boshqalar tahlil qilindi;
- okkazonalizmlar sinonimiyasi, okkazonal so'zlarning til lug'at tizimiga kirish yoki kirmasligi ochib berildi.

BMI natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu BMI okkazonalizmlarning badiiy-estetik vazifasi nazariy va amaliy jihatdan o'rganilgan. Ish natijasida umumlashtirilgan ilmiy-nazariy xulosalar so'z muammosini til va nutq aspektida o'rganishda, ayni paytda, so'zning badiiy-estetik xususiyatlarini ochishda muayyan qimmatga ega. Ishdagi ilmiy tahlil turkiy tillar, xususan, o'zbek tili leksikologiyasi, leksikografiyasi, uslubshunosligi, nutq madaniyati bo'yicha yaratiladigan qo'llanmalar qo'shimcha material bo'lib xizmat qila oladi. SHuningdek, badiiy matnni lingvistik tahlil qilishda ham foydalanish mumkin.

BMIning tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, komp'yuter yozuvida sahifani tashkil etadi.

1 - BOB. LEKSIK OKKAZIONALIZMLAR TUSHUNCHASI VA ULARNING OKKAZIONALIZMLAR TIZIMIDAGI O'RNI

1.1. Okkazionalizmning leksikografik talqinlari

Til va nutq hodisalarining o'zaro aloqadorligini o'rganish tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biridir. Tilning muhim elementi bo'lgan so'z nutqdan tashqarida til birligi, nutqda esa nutq birligidir. Bu hol, bir tomondan, til va nutqning o'zaro farqlanishini, ikkinchidan esa, o'zaro chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Til va nutq birliklari keskin farqlanuvchi hodisalar ekanligi tadqiqotlarda o'z ifodasini topgan¹.

Til birliklaridan farqli ravishda nutq birliklari nutq jarayonining mahsuli sifatida vujudga keladi. Zero, nutq jarayoni til birliklarining qo'llanishi, ularga xos ma'no qirralarning namoyon bo'lishi uchun bir vaziyat, kommunikativ maydondir. SHu boisdan ham nutq jarayoni turli so'zlar ma'nolarining ro'yobga chiqishi uchun ma'lum sharoitlar yaratadi. Nutqda barcha lisoniy birliklar bilan bir qatorda biror ijodkorning individual uslubiga xos bo'lgan so'z va iboralar ham ishlatiladi. Ular nutq hodisasi sifatida matnga yoki biror ijodkorning individual uslubiga xos so'z tarzida qoladi yoki nutqiy faoliyatda tezda faollashib, til tarkibiga singib, uning me'yoriy birligiga aylanib ketishi ham mumkin. Bunday so'zlar tilshunoslikda neologizm, okkazionalizm termini bilan ataladi. Tilshunoslikda neologizm va okkazionalizm haqida turli fikrlar bildirilgan. Ba'zilar neologizm bilan okkazionalizmni bir tushuncha sifatida ko'rsatsalar, boshqalar ularning farqli ekanligini ta'kidlaydi. Eng avvalo lug'atlarga murojaat qilaylik. O.S.Axmanova neologizmga shunday ta'rif beradi:

¹Соссюр Ф. Курс общей лингвистики. –М., 1933. –С.37-42; Потебня А. Из записок по русской грамматике. –М.: Учпедгиз, 1958; Виноградов В.В. Русский язык. –М. –Л.: Учпедгиз, 1947. –С. 12-13; Усмонов С. Сўз – тил бirligi va нутқ birligi sifatida // Тилшunoslik масалари. –Т.: ЎзССР ФА, 1963; Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. –Т.: Ўқитувчи, 1992.

“1. Yangi predmet yoki yangi tushunchani ifodalash uchun yaratilgan soʻz yoki ibora.

2. Umumtilda “fuqarolik” huquqiga ega boʻlmagan va shuning uchun alohida, koʻpincha, nutqning nafaol uslubiga xos deb qabul qilinuvchi yangi soʻz va iboradir. Stil neologizmi. Adabiy asarning u yoki bu janrida uchraganda yangilik deb qabul qilinadigan soʻz. Kundalik turmushda ishlatiladigan, lekin badiiy asarlarda qoʻllanmaydigan soʻz. Stilistik neologizm. Biror badiiy asarning muallifigina yaratgan va odatda keng doirada ishlatilmaydigan neologizmdir. Qiyoslang: gapaks eyremenon, potentsial soʻz”.¹

“Gapaks eyremenon (gapaks legomenon, okkazionalnoe slovo). Gapiruvchi yoki yozuvchi tomonidan maʼlum vaziyat uchun “bir marta” qoʻllanadigan soʻz va ibora”.²

“Potentsial soʻz, 1) aniq (realno) mavjud boʻlmagan (yaʼni mavjud boʻlganda ham nutqda hali ishlatilmagan), ammo biror tilning unumli soʻz yasovchi qolipiga mos tarzda har bir daqiqada yaratilishi mumkin boʻlgan sodda yoki qoʻshma soʻz; 2) frazeologizm elementi boʻlib, undan mustaqil birlik sifatida ajralish xususiyatiga ega boʻlgan soʻzlar”.³

Lugʻatdagi bu taʼriflarni batafsil keltirishimizdan maqsad, okkazionalizm va neologizm haqidagi tushunchalarning aniq ifodasini berishdir. Tushunishimizcha, O.S.Axmanova okkazionalizmni neologizm deb qaraydi. Endi boshqa lugʻatlarga eʼtibor qilaylik.

Maʼlum bir nutq parchasida yaratilib, ushbu matnda yashab, boshqa matnga oʻtmaydigan, tilning turgʻun normasiga qabul qilinmaydigan nutq birligiga nisbatan okkazional soʻz yoki okkazionalizm (lotincha occasionalis – tasodifiy (случайный) soʻzidan olingan)⁴ termini qoʻllanadi.

¹ Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. - М.: Сов. энциклопедия, 1969. -С. 262

² Ахманова О.С. Кўрсатилган луғат. – Б.95.

³ Ахманова О.С. Кўрсатилган луғат. – Б.343.

⁴ Словарь иностранных слов. -М.: Русский язык. 1979. -С. 35.

D.E.Rozentalʼ va M.A.Telenkovalar neologizmni shunday tushuntiradilar: “Neologizm (grekcha neos – yangi + logos – soʻz, tushuncha). Yangi predmet yoki yangi tushunchani ifodalash uchun yaratilgan soʻz yoki nutq iborasi (oborot rechi)... Soʻz keng qoʻllanish doirasiga kirgach, neologizm boʻlmay qoladi... Sovet davrining ayrim neologizmlari eskirgan soʻzlar qatoriga oʻtdi...

Stilistik (individual – stilistik) neologizm. Biror adabiy asar muallifi tomonidan maʼlum stilistik maqsad bilan yaratilgan, lekin keng tarqalish imkoniyatiga ega boʻlmagan, tilning lugʻat tarkibiga kirmagan neologizm.”¹ Ayni lugʻatda *okkazionalizm* va *okkazional* tushunchalariga ham alohida toʻxtalangan: “*Okkazionalizm*. Maʼlum matn sharoitidagina qoʻllanib, unumsiz soʻz yasash qolipi asosida yaratilgan soʻz. Qiyoslang: stilistik neologizm ”.

“*Okkazional* (lotincha occasionalis - tasodifiy). Umum tomonidan qabul qilingan qoʻllashlarga mos kelmaydigan, individual xususiyatga ega boʻlgan, maxsus kontekstga bogʻliq boʻlmagan (qiyoslang: uzual)”.²

Uzual terminiga berilgan taʼrifni ham koʻraylik.

“*Uzual*. Maʼlum til jamoasining qoʻllanish talabiga mos keladigan soʻz, frazeologik ibora, grammatik konstruktsiya va h.k. (qiyoslang: *okkazional*)”.

“*Uzus* (lotincha usus – urf, qoida, qoʻllash). Maʼlum til vakillari tomonidan qoʻllash uchun qabul qilingan soʻz, turgʻun birikmalar, shakllar, konstruktsiyalar va h.k.”.³

Berilgan taʼriflar qiyoslansa maʼlum boʻladiki, lugʻat tuzuvchilar okkazionalizmni neologizm deb qarashdan qochishga harakat qilganlar. Ular koʻrsatgan stilistik neologizmlarga berilgan tavsiflar mohiyat jihatidan okkazionalizm tavsiflariga yaqin, lekin birinchisida “tilning lugʻat tarkibiga kirmagan” degan fikr ham borki, u ikkinchi soʻz tavsifi ichida yoʻq. SHunday

¹ Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь – справочник лингвистических терминов. - М.: Просвещение. 1976. -С. 197.

² Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Кўрсатилган луғат. –Б.240.

³ Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Кўрсатилган луғат. – Б.498-499.

tasavvur tug'iladiki, okkazonalizmlar neologizmlardan farq qiladigan birliklar, lekin mualliflar ularni qat'iy ravishda neologizm emas, deya olmaydilar.

A.Hojiyevning "Lingvistik terminlarning izohli lug'ati"da "Okkazonalizm produktiv bo'lmagan qolip asosida yasalgan, faqat shu matnning o'zida qo'llangan so'z, individual uslub neologizmi. Masalan, *muzqaymoq (morojnyy)* kabi" degan ta'rif berilgan. Bundan tashqari, lug'atda okkazonal ma'no haqida ham tushuncha berilgan: "**Okkazonal ma'no** (lot. occasionalis - tasodifiy). So'zning semantik strukturasida shakllanib yetmagan, ma'lum individual qo'llashda reallashadigan ma'no: *Fan, san'atning gullari butun, to'plangandi suhbat uchun* (Oybek). Qiyoslang: uzual ma'no".¹

Bu izoh o'zbekcha okkazonal so'z va okkazonal ma'no haqida aniq ma'lumot beradi. Ko'rinadiki, "okkazonalizm" "individual uslub neologizmi" termini bilan sinonimik tarzda qo'llanishi mumkin ekan, chunki lug'atlar qoidalashtirilgan, muayyan me'yorlarga solingan tushunchalarni beradi. Okkazonalizmlarga lug'atlarda e'tibor berilmoqda ekan, ularning xususiyatlarini sanashda buni hisobga olish kerak, deb o'ylaymiz.

1.2. Tasodifiy, favqulodda yaratilgan so'zlarni nomlashga doir terminlar

Okkazonalizmlarga berilgan turli ta'riflar bu masalaga bag'ishlangan monografiya va maqolalarda ham uchraydi. Biz bu ta'riflarga ishimizning keyingi sahifalarida o'rni bilan batafsil to'xtaymiz.

Tilshunoslikda tasodifiy yaratilgan so'zlarni qanday nomlash masalasiga ham katta e'tibor berilgan va bunday so'zlar tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda turli terminlar taklif qilingan.

¹ Хожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1985. – Б.63 .

Rus tilshunosligida “okkazional soʻz” termini ilk bor N.I.Feldman tomonidan qoʻllanganini aytdik. U bu soʻzni quyidagicha taʼriflaydi: “Okkazional soʻzlar soʻz yasalishining mahsuldor tiplariga koʻra yuzaga keladi va ularning maʼnolari matnda motivlashadi va izohlanadi.”¹

G.Paul ham bu terminni ilk bor qoʻllaganlar qatorida turadi va “okkazional soʻz”ni uzual maʼnoning zidini anglatuvchi termin sifatida ishlatadi².

Okkazional soʻzlar boʻyicha qator tadqiqotlar muallifi Er.Xanpira shunday yozadi: “Neologizm” termini juda eskidir. Adabiyotlarda hozirgacha “neologizm” termini mavjud boʻlib, oʻrta maktabda ham faqat shu termin tan olingan. Yangi soʻzlarning hosil boʻlishi bilan bogʻliq koʻp qirrali muammoni yoritish uchun bu birgina terminning oʻzi yetarli emas”.³ Olim boshqa bir maqolasida okkazional soʻzlarni **tasodifiy soʻzlar** (“**sluchaynye slova**”) sifatida talqin qiladi⁴.

Soʻzning tugʻilishi, yaratilish jarayoni bilan tanishish qiziq va muammoli maʼlumotlar beradi. Rus tilshunosligida bu masalaga V.V.Lopatinning “Rojdenie slova” nomli monografiyasi bagʻishlangan boʻlib, unda okkazionalizmlarning yaratilishiga ham katta eʼtibor berilgan. Tadqiqotchi monografiyaning II bobida toʻlaligicha shu muammoni yoritadi. U bunday tasodifiy soʻzlarni atash haqida toʻxtalib, shunday deydi: “Bunday soʻzlarga nisbatan “neologizm” terminini qoʻllash toʻgʻri boʻlmaydi. Koʻpgina tilshunoslar ularni boshqacha atash toʻgʻrisida fikr bildiradilar. Bunday soʻzlarga nisbatan ishlatiladigan, koʻp tarqalgan termin okkazional soʻzlar yoki okkazionalizmlardir (lotincha occasio - tasodif). Biz ham shu termindan foydalanamiz.”

V.V.Lopatin boshqacha terminlar ham mavjudligi haqida bunday deydi: “Lingvistik adabiyotlarda okkazional soʻzlarning boshqacha termini ham mavjud. Ular turli mualliflar tomonidan taklif etilgan va “okkazionalizmlar” termini kabi keng doirada qabul qilinmagan.” Tadqiqotchi bu terminlarni keltirish oʻrinli

¹ Фельдмен Н.И. Окказиональные слова и лексикография. // Вопросы языкознания. – 1957. - №4. -С. 66.

² Пауль Г. Принципы истории языка. – М.: Изд. иностр. литературы, 1960. - С. 93-127.

³ Ханпира Эр. Смысловая структура окказионального слова // Русский язык в школе. – 1966. - №6. -С. 30.

⁴Ханпира Эр. Об окказиональном слове и окказиональном словообразовании // Развитие словообразования современного русского языка. - М.: Наука, 1966. - С. 155.

ekanligini, ularning har biri o'zini oqlashini, o'rganilayotgan hodisaning o'ziga xos tomonini tavsiflashini va bu bilan ushbu hodisa har tomonlama yoritilishini aytadi. So'ngra olim bu terminlarni sanab o'tadi: **individual so'zlar**, **muallif so'zlari** yoki **individual-muallif neologizmlari**, **stilistik** yoki **individual-stilistik neologizmlar**, **matn neologizmi**, **bir martalik neologizmlar**, **adabiy neologizmlar**, **o'zi yasalgan so'zlar (slova-samodelki)**, **ekspromt-so'zlar**, **meteor so'zlar**, **shoir neologizmlari** yoki **poetik neologizmlar**. Bular, bizning nazarimizda, eng munosib terminlar (nomunosib deb hisoblaganlarimizni bu yerda keltirmadik, chunki ular real emas ("нереальные"),"- deydi u¹.

V.V.Lopatinning bu fikrlari bizga ma'qul. Lekin tilshunoslikda mavjud bo'lgan **imkoniyatdagi so'zlar (potentsial so'zlar)**ni ham **okkazonalizmlar**² deb atashi bizni biroz o'ylantirib qo'ydi. Chunki imkoniyat hali ro'yobga chiqmaganlik ma'nosini ifodalar ekan, hali kelajakda yaratiladigan barcha so'zlarga nisbatan **potentsial so'zlar** terminini ishlatish to'g'ri bo'lsa kerak.

A.Arjanov "Zakon yest' zakon" nomli ishida yana bir qiziqarli fikrni aytadi. Jumladan, u shunday deydi: "Yangi so'zlarning ikki tipi bor: **neologizm** va **egologizmlar**. Ular orasidagi farq anchagina. Klassik neologizmlar shu bilan xarakterlanadiki, ular tezda umumxalq mulkiga aylanadi, turli matnlarga osongina singishib ketadi va lug'atlar ularni tezda to'la huquqli so'zlar qatorida ro'yxatga kiritadi. Faqat tilshunoslar 150 yil oldin *vliyanie*, *promыshlennostь*, *razvitie* so'zlari neologizm bo'lganini eslab qolishlari mumkin. **Egologizmlar** – boshqa masala ("ego" – men; bu termin so'z yasallishining sub'ektiv xarakterga ega ekanligini ta'kidlaydi). Ular faqat o'z matnlaridagina yashaydilar".³

A.Arjanovning bu fikrida asos bor. **Egologizm** terminining mohiyati "so'z yasallishining sub'ektiv xarakterga egaligini" ko'rsatadi, ammo tasodifiylik belgisi unda ifodalanmaydi. Bizga ma'lumki, sub'ektiv yasalgan so'zlarning ba'zilari

¹ Лопатин В.В. Рождение слова // Неологизмы и окказиональное словообразование. – М.: Наука, 1973. –С. 62-64

² Лопатин В.В. Кўрсатилган асар. – Б. 69-71.

³ Аржанов А. Закон есть закон // Журналист. –М., 1968.– №3. –С.20.

umumtilga qabul qilinishi mumkin. Masalan, M.SHayxzoda uslubiga xos *xalqobod*, *nurobod* so'zlari umumtil qatlamiga o'tib ketdi. Lekin okkazonalizmlarning aksariyati o'zlari bog'liq bo'lgan matnga xosligicha qolaveradi. V.V.Lopatin **egologizm** terminini ham munosib, qulay (удачный) termin deb hisoblaydi¹.

O'zbek tilshunosligida ham **okkazonalizm** termini keng qo'llanish doirasiga kirmagan. Bu termin A.Hojievning "Lingvistik terminlarning izohli lug'ati"², B.Yorievning tadqiqotida ("individual okkazonalizmlar" tarzida)³, M.Mirtojiev⁴ning maqolasida, I.Toshaliyev va M.Jo'raboeva⁵, A.Mamatov⁶, S.Mo'minov⁷, S.Toshaliyeva⁸larning tadqiqotlarida ishlatilgan. Boshqa ishlarda "yangi so'z" (Q.Samadov)⁹, "so'z qo'llash" (A.Rustamov)¹⁰, "individual-stilistik neologizm" (H.Abdurahmonov, N.Mahmudov)¹¹, "stilistik neologizmlar" (L.Abdullaeva)¹², "avtor neologizmi" (B.CHoriev)¹³, "individual leksik yangi yasallishlar" (E.Abdiev)¹⁴, "maromsiz yasamalar" (S.Toshaliyeva)¹⁵ kabi terminlar ishlatiladi.

Ko'rinadiki, **okkazonalizm** termini ko'pchilikka hali singishib ketgan emas. SHuning uchun rus tilshunosligida ham, o'zbek tilshunosligida ham tasodifiy,

¹ Лопатин В.В. Рождение слова// Неологизмы и окказиональное словообразование. —М.: Наука,1973. —С. 64.

² Хожиёв А. Лингвистик терминларнинг изохли луғати. —Т.: Ўқитувчи, 1985. — Б.63.

³ Яриев Б. Язык поэзии Максуда Шейхзаде: Дис. ... канд. филол. наук. —Т., 1978. —С 96; Б.Умуркулов ҳам шу терминни ишлатади. Қаранг: Б.Умуркулов. Поэтик нутқ лексикаси. — Т.: Фан, 1990. — Б.50.

⁴ Миртожиев М. Окказионал маъно : ТошДУ Илмий ишлар тўп. —Т., 1973. Чик. 443. — Б. 90-97.

⁵ Тошалиев И., Жўрабоева М. Ҳозирги ўзбек тилида окказионал сўз ясаиш // Ўзбек тили стилистикасининг актуал масалалари. — Т.: Ўқитувчи, 1983. — Б.29.

⁶ Маматов А. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари: Филол. фанлари д-ри ... дис. — Т., 1991.

⁷ Мўминов С. Окказионал-нутқий номинацияда мотивациянинг роли: Филол. фанлари номзоди ... дис — Т., 1990. — Б.71.

⁸ Тошалиева С. Ўзбек тилида окказионал сўз ясаиши: Филол. фанлари номзоди ...дис. —Т., 1998.

⁹ Самадов Қ. Ойбек тил маҳоратининг баъзи масалалари: Филол. фанлар номзоди ... дис. —Т., 1967. —Б. 140.

¹⁰ Рустамов Ҳ. Сўз қўллаш санъати // Нутқ маданиятига оид масалалар. — Т.: Ўқитувчи, 1973. С.Каримов ҳам "сўз қўллаш" терминини ишлатади. Қаранг: Ўзбек тилининг бадиий услуби. — Самарқанд: Зарафшон, 1992.

¹¹ Абдурахмонов Х., Маҳмудов Н. Кўрсатилган асар. —Б.29-38.

¹² Абдуллаева Л. Кўрсатилган асар. — Б.185.

¹³ Чориев Б. Ғафур Ғулом шеърини тил. —Т.: Фан, 1990. — Б.93.

¹⁴ Абдиев Э. Язык и стиль произведений Камеля Яшена. —Т.: Фан, 1990. —С. 19 .

¹⁵ Тошалиева С. Маромсиз ясамалар // Ўзбек тили ва адабиёти. — 1993. - №3. — Б.71 .

muallifning o'zigina yaratgan so'zlarga nisbatan turli terminlar qo'llanmoqda. Lekin har ikkala tilshunoslikda **okkazionalizm** terminidan foydalanuvchilar soni ko'payib bormoqda. Bizning nazarimizda, ushbu terminni ishlatish ma'qulga o'xshaydi. Sababi u, birinchidan, umumtilshunoslikda o'z bahosini olgan. Ikkinchidan, bu terminning ma'nosi ham hodisaning mohiyatini o'zida aks ettiradi. Uchinchidan, bu termin juda ixcham bo'lib, qo'llanish uchun qulay. To'rtinchidan, u lingvistik terminlar lug'atlarida o'z ifodasini topgan. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda **okkazionalizm** va **okkazional so'zlar** terminlarini ishlatishni ma'qul deb hisoblaymiz.

1.3. Neologizm va okkazionalizmlarning o'zaro munosabati

Mavjud ilmiy adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, okkazionalizm paydo bo'lish xususiyati, neologizm ifodalaydigan tushunchasiga ko'ra ma'lum ma'noda aloqadorlikka egadek tuyuladi. Lekin bu lisoniy hodisalar bir-biridan farq qiladi. Quyida ushbu masala haqida o'z fikrimizni bildiramiz.

Yangi so'z (neologizm) va okkazionalizmning o'zaro munosabati hamda farqini quyidagi to'rt mezon asosida tahlil qilish mumkin:

1. Muallifning (yaratuvchining) bor yoki yo'qligi. Bu mezon yangi so'zni ta'riflash uchun muhim emas. Yangi so'z – til fakti. Okkazional so'zlar esa nutq fakti hisoblanadi. Okkazional so'zlarning muhim belgilaridan biri uning biror muallifga taalluqliligidir. Bunday so'zlarning aksariyati xotirada qayta tiklanmaydi. Ular biror shaxs tomonidan birinchi bor yaratiladi. Albatta, og'zaki nutqda uchraydigan okkazional so'zlarning kimga taalluqli ekanligini bilish mumkin emas, bunga og'zaki nutqning qo'nimsiz, o'zgaruvchanligi halaqit beradi, ammo yozma nutq okkazional so'zlarning yaratuvchisini topishni ancha yengillashtiradi. Bir so'z bilan aytganda, okkazional so'zlar printsiptial ravishda aniq shaxsga – ana shu okkazional so'zning yaratuvchisiga taalluqlidir. Tilda esa uning har bir fakti, shu jumladan, yangi so'zlar ham faqat ijtimoiy jihatdangina,

ya'ni mazkur til egalari bo'lgan barcha kishilar jamoasiga qarashli mutlaq egasiz birlik sifatida ahamiyatlidir. Tildagi barcha so'zlar singari, keyinchalik egasi unutilgach, yangi so'zlar umumlashtirilgan va ularning muayyan mualliflarga tegishli ekanligi esdan chiqarilgan.

2. So'zning yangilik o'lchovi muhim, lekin barcha yangi so'zlar uchun absolyut va majburiy emas. Mazkur o'lchov hozirgi zamon yangi so'zlari, so'zning yangiligi sezilib turadigan dolzarb (faol) yangi so'zlar uchungina majburiydir. Masalan, *tijoratchi*, *jamoat xo'jaligi*, *vazirlik* va shu kabilar 90 - yillarda qo'llana boshladi, hozirgi kunda ularning yangilik bo'yog'i yo'qoldi.

Neologizm tushunchasining genetik o'zagi va printsipial asosi so'zning yangilik sifatidir. "Demak, neologizm nihoyatda nisbiy tushunchadir. Neologizmning yangilik bo'yog'ini yo'qotib odatiy, normal so'zlar qatoriga o'tishi tipik qonuniyatdir. So'z endi paydo bo'lganida, yangilik bo'yog'ini saqlab turganida neologizm xususiyatini saqlaydi. Yangi so'z til tomonidan tamoman o'zlashtirilmaguncha; leksikaning faol zahirasi fondiga qo'shilmaguncha, ya'ni g'ayritabiiylik ottenkasini yo'qotmaguncha neologizm bo'lib qolaveradi"¹. Lekin shunga qaramay, bu xususiyat hamma yangi so'zlarga ham xos emas. O'tmish davrlardagi (nisbiy) yangi so'zlarda bunday sifat yo'q, ammo u dolzarb yangi so'zlarda bor. SHuni unutmaslik kerakki, nisbiy yangi so'zlar o'z vaqtida dolzarb yangi so'zlar bo'lgan. CHunki dolzarb yangi so'zlar vaqt o'tishi bilan muqarrar ravishda nisbiy yangi so'zlarga aylanadi. Dolzarb yangi so'zlardagi yangilikni his etish ana shu yangi so'zda bo'lishi lozim bo'lgan majburiy belgidir. Umuman olganda, yangilik xususiyatining yangi so'zga xosligi mutlaqo shubhasizdir. Bu xususiyat neologizm umumiy tushunchasining asosi bo'lib hisoblanadi. Mana shu ma'noda E.Begmatovning neologizmning mohiyati yuzasidan aytgan quyidagi fikrlari haqiqatdir: " Neologizm paydo bo'lish davriga ko'ra yangi yoki eng yangi so'z bo'lib, unda yangilik ottenkasi yaqqol sezilib turadi. Neologizm tilda yangi paydo bo'lgan so'zdir. U til normativ so'zlar qatoriga o'tib ulgurmagan

¹ Ўзбек тили лексикологияси.- Т.: Фан, 1981. — Б.155.

leksemdir. SHu tufayli neologizmlar lug'at tarkibining passiv qatlamiga mansub so'zlar hisoblanadi"¹. Hamma qiyinchilik shundaki, bu xususiyatni tahlil qilgan paytda uni son yoki rasmiy jihatdan xarakterlab bo'lmaydi. Bu o'rganilayotgan xususiyatning tilshunoslar tomonidan obyektivlashtirish va ta'riflashni juda qiyinlashtiradi. Masalan, tilda paydo bo'lgan so'z o'zining yangiligini (va shu bilan birga o'zining neologizmlilik maqomini) qancha vaqt saqlab qolishini aytib berish juda qiyin, hatto mumkin ham emas. Tilda paydo bo'lgan so'z semantik jihatdan qanchalik dolzarb, ya'ni unga nutqiy ehtiyoj qancha kuchli bo'lsa, u til jarayoniga qanchalik jadal qo'shilib ketsa, uning yangiligi shunchalik tez so'nib boradi hamda uning neologizm sifatidagi muddati ham shunchalik qisqa bo'ladi. Masalan, bugungi kundagi bir qator *vazir, viloyat, tuman, hokim, teleko'prik, tamaddinoma, nafaqaho'r, taqdimot* kabi yangi so'zlar xuddi shu g'oyat dolzarbligi va tez-tez qo'llanishi sababli o'zining yangiligini yo'qotdi.

SHunday qilib, yangi so'zlar bevosita tildagi tarixiy o'zgarishlar umumiy zanjiriga kiradi va shuning uchun o'zi ham ana shu o'zgarishlarga uchraydi. Neologizm tushunchasining printsiplial shartlari va belgilaridan biri bo'lgan bunday hol tarixiy vaqt mezoni tufayli lingvistik jihatdan kiritilgan, alohida nutq fakti sifatidagi okkazional so'zlarga yotdir.

3. Nihoyat, aytish kerakki, yangi va okkazional so'zlar til lug'at tarkibiga kirish yoki kirmaslik mezoni jihatidan ham juda turlichadir. Yangi so'zlarning til lug'at tarkibiga kirishi (aniqrog'i, tilning bir qismi ekanligi) hech qanday shubha tug'dirmaydi. Adabiy tilning tarixi shundan dalolat beradi. Okkazional so'zlar sof nutq mahsulidir. Faqat til fakti bo'lib, okkazionallik maqomidan ajralgan (yoki bunday maqomga umuman ega bo'lmagan) taqdirdagina yuzaga kelgan so'z yangi so'z deb atalishi mumkin.

E.Begmatov o'zbek tilida yangi so'zlar va ularning lisoniy xususiyatlari haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: "Til leksikasiga eskirish xususiyati bilan bir

¹ Ўзбек тили лексикологияси.- Т.: Фан, 1981. — Б.155.

qatorda yangilanish ham xosdir. Tilda ko'rib o'tilganidek, ba'zi so'zlar eskirishi, iste'moldan chiqishi qonuniy hol bo'lgani kabi, unda yangi so'zning tug'ilishi, yaratilishi ham tabiiydir. ...O'zbek tilida yangi davrda paydo bo'lgan yangi lug'aviy birliklar bu til leksikasining **yangi so'zlar qatlamini** tashkil qiladi.

Yangi so'zga ekspressivlik – yangilik bo'yog'i xos bo'ladi. Yangi so'z birinchi duch kelgan kishiga, ayniqsa, eski til leksik normasi bilan tanish keksa avlodga g'ayritabiiydek tuyuladi. Bu hol lingvistikada leksik idiosinkraziya deb yuritiladi".¹

4. Ma'lumki, so'zning paydo bo'lishidagi tarixiy vaqt omili neologizm tushunchasini ta'riflashda asosiy belgilardan biri hisoblanadi. Vaqt va hayot jarayonida eskirib qolishi mumkin bo'lgan, o'z yangilik sifatini kamaytirib bora oladigan so'zlarga yangi so'z bo'lishi mumkin. Tilda yangi so'zning vujudga kelishi uning tarixiy shakllanishi davomida amalga oshib kelgan. SHuning uchun neologizmni aniqlash chog'ida qaysi tarixiy davrga taalluqli so'z nazarda tutilayotganligiga qarab, neologizmning nisbiy o'zgaruvchanlik xarakteri hisobga olinadi.

E.Begmatov to'g'ri ta'kidlaganidek: “ So'zning yangiligi yoki eskiligi so'zning tilda paydo bo'lish davriga ko'radir. So'zning qo'llanuvchanligi yoki eskirganligi leksemalarning funktsional aktivligi yoki passivligiga ko'radir”.² SHu ma'noda har bir so'zni uning paydo bo'lgan vaqtiga nisbatan printsiptial ravishda neologizm deb atash mumkin. Bunda faqat u yoki bu so'z tilda qachon paydo bo'lganligini aniqlash kerak. Masalan, *kolxoz*, *sovxoz*, *traktor*, *traktorchi*, *pioner* singari so'zlar o'zbek adabiy tili tarixida XX asrning 30 - yillari neologizmlari hisoblanadi. Vaqt o'tishi bilan ular yangilik bo'yog'ini yo'qotib, til egalari ongiga singib, keng qo'llana boshlagan va faol so'zlar qatlamidan o'rin olgan. Ammo bugun *kolxoz*, *sovxoz*, *pioner* so'zlari iste'moldan chiqib, tarixiy so'zlarga aylandi.

¹ Ўзбек тили лексикологияси. — Т.: Фан, 1981. — Б.152.

² Ўзбек тили лексикологияси.— Т.: Фан, 1981.— Б.142.

XX asrning 30 - yillarida xilma-xil soʻz yasash tipi asosida yangi soʻzlar guruhi yuzaga keldi. Bular nisbiy oʻzgaruvchan boʻlib, ularning vazifalari aniq tarixiy davr, aniq matn bilan bogʻlab oʻrganiladi. SHuning uchun ham XX asrning 40 - yillari, 50 - yillari, 60 - yillari, 70 - yillari, 80- yillari, 90- yillari neologizmlari toʻgʻrisida alohida-alohida gapirishga toʻgʻri keladi. Har bir davr neologizmi turli tarixiy evolyutsiyalarni boshidan kechirib, oʻzining yangilik sifatini asta-sekin yoʻqotib borgan holda yashaydi. “Tilda yangi soʻzlarni yaratish tilning tarixiy rivojlanishi, uning vaqt jihatidan oldinga harakat qilishi mahsulidir. SHuning uchun tildagi barcha yangi hosil boʻlgan soʻzlarni faqat sinxron tarzda emas, balki diaxron tarzda, yaʼni til rivojlanishining muayyan davrida yuzaga kelganligi nuqtai nazaridan oʻrganish mumkin”.¹ Bundan shu narsa kelib chiqadiki, yangi soʻz tushunchasi diaxronidir.

Okkazional soʻzlar xotirlanmaydigan xossagagina emas, balki qoʻllanish jihatidan bir martalik va sinxron-diaxron qorishqlik xossasiga ham egadir². Demak, ular tarixiy vaqtga nisbatan taalluqsizdirlar. SHuning uchun bunday soʻzlar neologizm deb atala olmaydi.

SHunday qilib, yangi soʻzni taʼriflashda vaqt mezoni zarur, lekin yuqorida koʻrsatilganidek, u absolyut emas, unga nisbiylik jihatidan qaraladi.

Yuqorida keltirilgan dalillarga asoslanib, yangi soʻzga shunday taʼrif berish mumkin: Yangi soʻz tilda oʻz tarixiy hayotining dastlabki bosqichini oʻtayotgan, yangilik boʻyogʻiga ega boʻlgan soʻzdir.

SHunday qilib, **yangi soʻz** terminini okkazional soʻzlarga nisbatan ularning alohida xossalari tufayli qoʻllab boʻlmaydi. Yangi soʻz u yoki bu dalilni (mazkur holda yangi soʻzning ifodalanish dalilini) muayyan faktga bogʻlaydigan tamomila diaxron tushunchadir. Okkazional soʻzlar oʻz “ichki” tarixidan mahrum boʻlganligidan printsiptial jihatdan “notarixiydir”, chunki bir marta qoʻllanishi, aksariyatining xotirada qayta tiklanmasligi va sinxron - diaxron qorishqligi tufayli

¹ Тимофеев К.А. Об основных понятиях словообразования // Русский язык в школе. – 1971. – №3. – С.30.

² Каранг: А.Г.Лыков. Современная русская лексикология: русское окказиональное слово. М.: Наука,– 1976. –С 12-14, 18-19.

ular tilda uzoq vaqt yashashdan mahrumdir. Okkazional so'zlarning paydo bo'lishi har holda unga nisbatan tashqi belgi bo'lgan tarixiy faktlar bilan bog'liq. Masalan, okkazional so'z o'zi yuzaga kelgan aniq tarixiy sanaga ega bo'lishi, o'z aniq tarixiy shaxsi, o'z muallifi bilan, shuningdek, uning paydo bo'lishiga olib kelgan sabablar va vaziyatlar bilan aloqador bo'lishi mumkin. Bunday so'zlarga, barqaror (uzual) so'zlardan farqli ravishda, chinakam tarix yotdir. U vaqti-vaqti bilan o'zgarib turadigan xususiyatlardan mahrumdir, ya'ni leksik ahamiyat, stilistik bo'yoq, ekspressivlik, so'z yasovchi struktura va hokazolar sohasidagi ichki rivojlanishdan mahrumdir.

Okkazional so'zning tarixiy hayoti nuqtali xarakterga ega, chunki uning ishlatilishi printsipga ko'ra diaxron jihatdan uzoqqa cho'zilmaydi.

Okkazional so'zlar tilning vaqt jihatiga dahldor emas, ya'ni uni, paydo bo'lgan vaqtdan qat'i nazar, na yangi so'z, na barqaror so'z deb atab bo'lmaydi. Okkazional so'zlar yozma matnlarda muhrlanib qolishi mumkin, ammo u og'zaki nutqda tug'ilganida nutqiy jarayon tugashi bilan yashashdan mahrum bo'ladi. O'zbek adabiy tili tarixining turli davrlari adiblariga (M.SHayxzoda, H.Olimjon, U.Nosir, CHo'lpon, Mirtemir va boshqalar) tegishli okkazional so'zlar o'zi yaratilgan matnda bizning kunimizgacha yetib kelib, hech qanday o'zgarishga uchramadi, shu jumladan, eskirmadi ham, faollashmadi ham; tarixiy davr faktoridan uzoq bo'lganligi tufayli bunday bo'lishi mumkin emas edi. Demak, bunday holda okkazional so'zlar tarixiy rivojlanish va o'zgarish omilidan yiroqdir.

Okkazional so'zlarning ana shu biz ko'rsatgan xususiyatlari, ya'ni ularning printsipial jihatdan "eskirmasligi" ular to'g'risida "doimiy yangi so'zlar" yoki "abadiy yangi so'zlar" degan ancha keng tarqalgan fikrlarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, okkazional so'zlarni yangi so'zlar qatoriga qo'shish to'g'ri ham, maqsadga muvofiq ham emasdir. Ular nutqning o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan individual birligidir.

1.4. Okkazional so'zlarning o'ziga xos xususiyatlari

Tilning kam qo'llanadigan, ba'zan hali ma'lum va mavjud bo'lmagan, so'z yasash qolipi asosida muayyan nutqiy ehtiyoj tufayli to'satdan, favqulodda vujudga keladigan, ijodkorning individual ijodi bo'lgan nutqiy hodisa okkazional so'z deb yuritilmoqda¹. Bunday so'zlarga xos bo'lgan eng muhim belgi sifatida ularning matn bilan chambarchas bog'liqligi, matndan tashqarida tushunarli bo'lmasligi ko'rsatiladi². Bu fikrga e'tiroz bildirish mumkin. Okkazional so'zlarning ko'pchiligi matnsiz ham tushunarli bo'lishi mumkin. Masalan, *changiston*, *balchig'iston*, *arslonvor*, *o'yparast*, *gulparast*, *kulgudosh* kabi okkazionalizmlari o'qigan va eshitgan odamlarga ham tushunarli. Ularning ma'nolari ko'z oldimizda biror obrazni yaratadi. Lekin ular bizga g'alatiroq, kulgiliroq tuyuladi. *CHangiston* so'zini o'qiganimizda xayolan "Obbo azamat-e, changning o'ta ko'pligini ko'rsatadigan ajab termin topibdimi" deymiz. *Arslonning* o'zi — bahaybat hayvon, *arslonvor* so'zi tasavvurimizda nafaqat arslonga o'xshashlikni, balki arslonning mahobati, ulug'vorligiga o'xshashlik obrazini yaratadi. Qiyoslaylik: *arslondek* - *arslonvor*, *ulug'vor* - *arslonvor* kabi. *O'yparast* haqida ham shunga o'xshash fikrni bildirish mumkin. Nazarimizda, *o'ychan* — o'zida o'y surish belgisi normada, "*o'yparast*"da esa bu belgi nihoyatda kuchli ifodalanadi. *Kulgudosh* so'zi *sinfidosh*, *fikrdosh*, *qishloqdosh* so'zlari qolipi asosida yasalgan. Mazkur okkazional so'zda "birga kuladigan" ma'nosi bilan birga "doimiy"lik ma'no qirrasi ham ifodalanadi. Bunday so'zlar matnsiz ham tushunarli bo'laveradi. Ularga "g'alatilik" belgisi juda ham xosdir.

E.A.Zemskayaning fikricha, okkazional so'zlarga xos bo'lgan belgilardan biri matnga xoslik bo'lsa, yana boshqalari ularning tilga o'zlashib ketmaganligi va o'z yangiligini saqlab turishi bilan neologizmlardan farqlanishidir. Tadqiqotchi okkazional so'zlarning vujudga kelish sabablaridan biri sifatida nutqning

¹ Ханпира Эр. Окказиональные элементы в современной речи //Стилистические исследования. — М.: Наука, 1972.— С. 249; Земская Е.А. Современный русский язык. Словообразование.— М.: Просвещение, 1973. — С. 228.

² Фельдман Н.И. Окказиональные слова и лексикография // Вопросы языкознания.—1957. —№4. — С.66.

emotsional-ekspressivligini ta'minlash maqsadida til normalarining buzilishini ko'rsatadi¹. V.N.Xoxlacheva okkazionalizmlarga xos bo'lgan boshqa belgilarni keltiradi. U jonli qoliplar tufayli yuzaga kelgan, til lug'at tarkibidan o'rin olmagan, individual uslubga xos bo'lgan so'zlar okkazional so'zlar bo'ladi, deb hisoblaydi va ularning vujudga kelishida noqonuniylik mavjudligini e'tirof etadi².

A.G.Likov okkazional so'zlarga xos to'qqiz belgini ajratadi. Ular: 1) nutqqa xoslik; 2) bir marta qo'llanishlik; 3) qabul qilinmaslik; 4) so'z yasalihi asosida vujudga kelish; 5) anormallik; 6) ekspressivlik; 7) nominativlik; 8) sinxron-diaxronik qorishqlik; 9) individuallikka xoslik. U nutqqa xoslikni okkazional so'zlarning muhim belgilaridan biri deb hisoblaydi. "Boshqa belgilarning hammasi, - deb yozadi tadqiqotchi, - xususan, ana shu umumiy belgining aniq aks etishi uchungina xizmat qiladi."³

A.Mamatov o'zbek tilshunosligida okkazional so'zlarni adabiy normaga munosabati nuqtai nazaridan tadqiq etgan. U ham nutqqa xoslikni okkazional so'zlarning asosiy xususiyatlaridan biri sifatida ajratadi va ularning yaratilishidagi asosiy holatlardan biri nutqqa rang-baranglik berish ekanligini ta'kidlaydi. Tadqiqotchi o'zbekcha okkazional so'zlarning yetti belgisini ko'rsatadi. Ular: 1) nutqqa taalluqlilik; 2) nonormallik, 3) bir marta qo'llanishlik; 4) so'zlovchi yoki adiblar tomonidan yaratilish; 5) ekspressivlik; 6) so'z yasash qoidalariga amal qilish; 7) tarixiy-zamonaviy moslashish.⁴ Tadqiqotchi bunda nominativlik belgisini hisobga olmaydi. Nazarimizda, okkazional so'zlarga bu belgi xos, chunki ular ham borliqdagi narsa - predmetlar, hodisa va harakatlarning nomidir. Masalan, *qumzor*, *yozloq*, *g'o'zapoyahokim*, *futbolgoh*, *qishboy*, *xo'pchi*, *hazilvon* kabilar yo joyni yoki shaxsni ataydi.

¹ Земская Е.А. Современный русский язык. Словообразование.— М.: Просвещение, 1973.— С. 228.

² Хохлачева В.Н. Индивидуальное словообразование в русском литературном языке XIX века // Материалы и исследования по истории русского языка. - М.: АН СССР, 1972. -С.298.

³ Лыков А.Г. Современная русская лексикология: русское окказиональное слово - М.: Наука, 1976. —С. 7.

⁴ Маматов А. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари: Филол. фанлари д-ри ... дис. - Т., 1991. — Б. 203-207.

S.Mo'minov neologizm va okkazionalizmlarni o'zaro qiyoslab, ularga xos bo'lgan belgilarini ko'rsatadi. U okkazionalizmlarning muhim belgilari sifatida quyidagilarni eslatadi: 1) okkazionalizmlarning lug'at qatlamiga munosabati; 2) individga xosligi (okkazional ma'no); 3) bir marta qo'llanadigan, ko'pincha emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan nutq birligi; 4) aniq badiiy nutqiy holat uchun xizmat qilish; 5) motivlashgan bo'lishi¹.

Qayd qilingan belgilardan ko'rinadiki, okkazionalizmlarning motivlashgani boshqa tadqiqotchilar tomonidan ajratib ko'rsatilmagan. S.Mo'minov ana shu beshinchi belgini o'z ishiga asos qilib olgan.

S.Toshaliyeva o'zining "O'zbek tilida okkazional so'z yasalihi" mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasida okkazional so'zlarning o'ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatadi: Okkazionalizmlar: 1) nutqiy hodisa; matn va nutq vaziyati bilan bog'liq; 2) anormal-maromsiz; 3) bir marta qo'llashga mo'ljallangan; 4) shaxsiy-ijodiy yasalma - so'z ijodkorligiga daxldor; 5) so'z yasash va so'z qo'llash bilan bog'liq; 6) yasalihi jarayoni, yasalihi tarzi, ishlatilish sababi asoslangan; 7) morfem bo'linishi va tarkiblanish bilan bog'liq odatiy va g'ayriodatiy munosabatlar aniq anglashilib turadi; 8) qo'llanishi va yasalihi ma'lum qurshov (mikromatn) ni talab qiladi; 9) ma'lum lisoniy-shuuriy tasavvurlar va o'zgartirib olish bilan bog'liq; 10) nutqiy atash(nomlash) va matn yaratish usuli sifatida namoyon bo'ladi.²

Boshqa tadqiqotchilar okkazionalizmlarning xususiyatlariga atroflicha to'xtalishmagan. Ular, asosan, ma'lum bir ijodkorning so'z qo'llash mahorati masalasida okkazionalizmlarning o'rni va rolini qayd etib o'tishgan, xolos.

Biz ishimizning oldingi qismida neologizm bilan okkazionalizmlarning farqini imkonimiz doirasida, kuzatishlarimiz asosida ochib berdik va shu o'rinda okkazionalizmlarga xos xususiyatlarni tahlil qildik. Ularni qisqacha sanab o'tamiz:

¹ Мўминов С.М. Окказионал нутқий номинацияда мотивациянинг роли: Филол. фанлари номзоди ... дис – Т., 1990. – Б.82.

² С.Тошалиева. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши: Филол. фанлари номзоди ...дис. –Т., 1998. – Б.45-46.

1) sinxron-diaxron qorishqlik; 2) muallifning borligi; 3) yangilik o'lchovi; 4) til lug'at tarkibiga kirishi yoki kirmasligi. Bu belgilar okkazionalizmlar bilan neologizmlarni farqlaydigan belgilardir. SHunday qarash nuqtai nazaridan yondashilganda, okkazionalizmlarning eng muhim belgisi ularning vaqtga munosabati, ya'ni printsip jihatdan eskirmasligi, doimiy yangi so'zligicha qolishidir.

Boshqa belgilar xususida biz yuqoridagi olimlarning fikriga suyanganda, to'plagan faktik materialimiz tahlilidan kelib chiqib fikr bildirmoqchimiz. Ma'lum bir nutq parchasidagina uchrab, ushbu matnda yaratilgan va shu matnda yashovchi okkazional so'zlar til va nutq o'rtasidagi eng faol o'zaro ta'sir zonasida amal qiladi. Ular, bir tomondan, til va nutq faktlari orasidagi ziddiyatni ifodalasa, ikkinchi tomondan, til sistemasi va norma o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni ham ifodalaydi. Bunday so'zlar o'zlari qo'llanayotgan nutq jarayonida boshqa so'zlar (til birligi hisoblangan uzual so'zlar) bilan teng huquqlilik asosida ishlatilsa-da, faqat o'zlarigagina xos bo'lgan xususiyatlari bilan ulardan farqlanadi. Ular quyidagilar:

1. Nutqqa (matnga) bog'liqlik.

Bu alomat okkazional so'zlarning eng muhim belgisi hisoblanadi. Ma'lum bir nutqiy vaziyatda mazmun va emotsionallik jihatidan oddiy til birligidan zarurroq bo'lgan shunday nutqiy birliklar bo'ladiki, ular o'zlari taalluqli bo'lgan matnda yaratilib, ushbu matnda qo'llanadi va u bilan birga yashab qoladi. Bunday so'zlarning til lug'at boyligiga qabul qilinishi va umumqo'llanishga o'tishi shart emas.

Muayyan til lug'at boyligiga kirgan birliklar barqaror so'zlar bo'lib, ularning matnga bog'liqligi nisbiydir. CHunki barqaror so'zlar nutqda yakka holda, so'z-gap, bir so'zlik jumla va shu kabi shakllarda ham qayta-qayta qo'llanishi mumkin. Okkazional so'zlarning matnga bog'liqligi esa ko'pchilik hollarda mutlaqo zarur bo'lib, ular alohida, matndan tashqarida yashay olmaydi. Matndan tashqarida olingan okkazional so'zda (masalan, *uvadaband*, *kuzaytirmoq*,

damkash, sezim, nursiramoq, rangdosh) leksik ma'no ehtimollik xarakteriga ega bo'lib, matn bilan oydinlashadi va bu hol okkazional so'zga nutqdagi barqaror so'zlar bilan bir qatorda qo'llanish imkoniyatini beradi.

Binobarin, barqaror so'z matnga bog'liq bo'lishi bilan birga, uning o'zi buni oldindan belgilab beradi va shakllantiradi. Boshqacha aytganda, barqaror so'z matnni ijodiy ravishda shakllantiruvchi faol omildir. Okkazional so'z esa alohida o'zi matn hosil qilish xususiyatlariga ega emas. Masalan: *Biz ma'naviy tashkilotmiz —“**Ranjkom**”miz, ya'ni O'zgalarni ranjitmoqlik bizning ishimiz.* (A.Oripov)

Ushbu matndagi *ranjkom* so'zi barqaror so'zlarning ancha keng matniga tayanmasdan turib hech qanday ma'noga qodir emas va mutlaqo tushunarsizdir.

2. Ijodiylik. Okkazional so'zlarning ijodiyliqi barqaror (uzual) so'zlarning turg'unligiga qarama-qarshi qo'yiladi. Barqaror so'zlarning turg'unligi deyilganda, ularning xotirada qayta tiklanishi, ya'ni lug'atda tayyor holda mavjud bo'lib, funktsional jihatdan qayta (takror) ishlatilishi mumkinligi tushuniladi. Barqaror so'z o'z shakl va ahamiyatiga ko'ra til lug'at tarkibiga qarashli bo'lib, nutqda ma'lum ko'nikma, malaka asosida ulardan foydalaniladi. Bunda ularning tilda mavjud bo'lgan shakli va ma'nosi xotirlanadi.

Okkazional so'zlarining qo'llanishi tayyor shakl yoki ma'noni eslash emas, balki yangi so'zni ijod qilish, yaratish bilan bog'liq. Bunday so'zlarning har bir qo'llanishi uning yangi paydo bo'lishidir.

Okkazional so'z o'z mohiyatiga ko'ra yasama so'z bo'lishi lozim, chunki u hech bo'lmaganda ikki morfemaning nisbatan erkin qo'shilishi natijasidir. Okkazional so'z har doim yaratilavermaydi, u nutqiy ehtiyoj, favqulodda vujudga keluvchi talab natijasidir. SHu sababli bunday so'zlar nutqda miqdoran kam uchraydi hamda har qanday ijodkorning tilida ham uchrayvermaydi. CHunki bu kabi so'zlarni yaratish adibdan muayyan topqirlik va mahoratni talib qiladi.

3. Okkazional so'z va lisoniy norma o'rtasidagi munosabat. Okkazional so'zlarning yasalishi til leksik-semantik normasining u yoki bu darajada

buzilishidir. Okkazional soʻzlarning normaga munosabati bir xil emas. Baʼzi okkazional soʻzlar tildagi mavjud soʻz yasalishi qoidalari asosida yaratiladi: *Har nechuk, shoirman — sen bilan jondosh, Toʻyingda toʻydoshman, tirik yelkadosh. Degayman, yosh umring oʻylab, ey, qondosh, Bitgum, bitilmagan dostoning menda.* (A.Oripov) Ushbu parchadagi *toʻydosh* okkazionalizmi *qondosh, jondosh, yelkadosh* soʻzlaridan soʻz yasalishi jihatidan farqlanmaydi. Lekin shunga qaramay, u, birinchidan, qoʻllanish jihatidan bir martaligi bilan, ikkinchidan, muallif tomondan ijod qilinishi bilan mazkur soʻzlardan farq qiladi. Bu soʻz tilning asosiy elementlari singari lugʻatlar va grammatikalarda meʼyorlashtirilmagan nutq birligidir.

Asaliston, changiston, balchigʻiston, shovqinzor, qoʻngʻiroqzor okkazional soʻzlari mavjud mahsuldor soʻz yasalishi qoliplari asosida yaratilgan boʻlsa ham, ularda soʻz yasalishi qoidasi buzilgan. Chunki *-zor* qoʻshimchasi asosdan anglashilgan “..narsa (ekin, daraxt va h.o.) koʻp boʻladigan joy nomini bildiradigan ot yasaydi”¹, *-iston* esa “..xalq (millat) nomini bildiruvchi yoki boshqa biror soʻzga qoʻshilib, shu xalq (millat) yashaydigan mamlakat yoki yasovchi asos anglatgan narsa koʻp boʻlgan joy maʼnosidagi ot yasaydi”.² Ammo quyidagi misollarda bu meʼyorning buzilishi namoyon boʻladi: *O, Oʻzbekiston, asal sandigʻim mening, asalistonim mening.* (O.Matjon) *Yozda changistonu qishda balchigʻiston koʻchamen.* (E. Vohidov) *Hech kim sezmay qoladi Bir kun arshga yetganim, Bu shovqinzor oralab Dodlab oʻtib ketganim.* (H.Xudoyberdieva) ... *Olamning shikoyatlari oquvchi sovuq simlar ulangan telefon hamda qoʻngʻiroqzor xona...* (N.Norqobul)

Til mezonini boʻyicha *-zor* va *-iston* affikslari jonli, oʻsuvchi narsalarni bildiradigan soʻzlarga qoʻshiladi, ammo yuqoridagi misollarda butunlay jonsiz narsani anglatadigan soʻzlardan yangi soʻz yasaydi va ularning koʻpligini obrazli tarzda ifodalaydi. Vaholanki, bunday narsalarning koʻpligi analitik usul bilan hosil

¹ Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. — Т.: Ўзбекистон, 1992. — Б. 210.

² Кўрсатилган асар. —Б. 210 .

qilingan shakllar orqali ifodalanadi. Qiyoslang: *asali ko'p O'zbekiston - asaliston O'zbekiston, changib yotadigan ko'cha - changiston ko'cha, balchiq bo'ladigan qo'cha - balchig'iston ko'cha, shovqin-suron (dunyo) - shovqinzor (dunyo), doim qo'ng'iroq ovozlari eshitiladigan xona - qo'ng'iroqzor xona* kabi.

Qiyosdan ko'rinadiki, bunday okkazionalizmlarda so'z hosil qilish me'yori buzilgan bo'lsa-da, o'quvchi yoki tinglovchiga ular yoqadi. Sababi, bunday ishlatishda, eng avvalo, ixchamlikka intilish ehtiyoji qanoatlantiriladi, ikkinchi tomondan, chiroyli obrazli ifodalar vujudga keladi.

Hozirgi o'zbek tilida bir qator shaxs oti yasovchi qo'shimchalar borki, ularning unumdorligi pasaygan. Masalan, *-xo'r, -kash, -furush* qo'shimchalari asli fors-tojik tillariga xos element bo'lib, hozirgi vaqtda deyarli yangi so'z yasamaydi. Lekin ular ishtirokida ma'lum muallif tomonidan *havoxo'r, g'urbatkash, she'rfurush, mansabfurush, balokash* kabi so'zlar hosil qilingan. Bunday so'z yasalishi normaga mos emas. SHuning uchun ham ular g'ayritabiiy tuyuladi. Lekin bu asosli mezonisizlik, noto'g'rilik bo'lib, ma'lum maqsadga bo'ysundirilgandir. Misollar: *Deylik, Los-Anjeles shahri ustiga Qora qanot yoydi motorlar dudi. Tokio, London, Nbyu- .. Qurum bosgach, ko'k — Havoxo'r bir kalxat, ofat hudhudi!* (O.Matjon) *...Uzoq bo'ldi bu g'urbatkash umrim. Ko'rdim goh she'rfurush, goho sur mansabfurush.* (E.Vohidov) Misollardan ko'rinadiki, okkazional so'zlar yuqorida keltirilgan matnga singishib ketgan, ularning o'rniga boshqa so'zni qo'llab bo'lmaydi. SHu ma'noda okkazional so'zlarning til normasi bilan munosabati yana bir tomondan namoyon bo'ladi.

4. Okkazional so'zlarning to'g'ri yoki noto'g'riligini idrok etish. Ma'lumki, til qoidalarini bilmaslik natijasida imloviy, orfoepik, grammatik va uslubiy xatolarga yo'l qo'yilganligini idrok etish bilan okkazionalizmlarning to'g'ri yoki xato ekanligini idrok etish bir xil narsa emas.

Okkazional so'zlarning noto'g'riligi haqidagi taassurot ularning eng muhim funktsional sifatlari – “oldindan belgilangan” ta'sirchanligi, o'ziga xos semantikasi tufayli so'ngandek bo'ladi. Okkazional so'zlar ijod qilingan birlik sifatida

so'zlovchining (muallifning) muayyan nutq mahoratidan dalolat beradi hamda bu bilan tinglovchida okkazional so'z ijodkorining nutq imkoniyatlariga bo'lgan shubhasini yo'qotadi. Okkazional so'zlarning rasman mezonisizligi uning funktsional jihatdan maqsadga muvofiqligi va tasviriyligi tufayli "oqlanadi". Hatto ba'zi xatolar savodsizlik oqibati bo'lmasa, muayyan xarakterni ko'rsatuvchi tasviriylar vosita sifatida xizmat qiladi.

SHunday qilib, mezonni buzish maqsadga muvofiq holda tashkil etilgan tasviriylar vositaga aylanar ekan, bu hol xato deb idrok etilmaydi.

5. Okkazional so'zlarning qo'llanish jihatidan bir martaligi ularning muhim xususiyatlaridan biridir. Okkazionalizmlar nutqda faqat bir marta ishlatilib, nutqiy holatlarga o'ziga xoslik bo'yog'ini beradi, ifodada aniqlik, yaratuvchanlikni ko'rsatadi, til originalligi, izlanishda tilning mavjud imkoniyatlarini safarbar etishni taqozo etadi.

Tilshunoslikda okkazional so'zlarning "*individual so'zlar*", "*muallifning yangi so'zlari*", "*individual-muallif neologizmlari*", "*uslubiy neologizmlar*" yoki "*individual-uslubiy neologizmlar*", "*matniy neologizmlar*", "*bir martalik neologizmlar*", "*shoir neologizmlari*" yoki "*poetik neologizmlar*" kabi nomlari mana shu xususiyati bilan bog'liq¹.

Okkazional so'zlarning o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etuvchi mazkur nomlar ichida **bir martalik neologizmlar** degan nomni alohida ta'kidlash mumkin. Ushbu nom okkazional so'zlarning funktsional jihatdan bir martalilik xususiyatini ko'rsatadi.

Har bir ko'p ma'noli so'z nutq jarayonida o'z ma'nolaridan faqat bittasini ro'yobga chiqaradi (faollashtiradi). Matnning nutq bo'lagi sifatidagi xossasi ana shunda namoyon bo'ladi va so'zning matnga bog'liqligi ifodalanadi. Lekin okkazional so'zning matnga bog'liqligi barqaror so'zning matnga bog'liqligidan ancha kuchli bo'lib, u o'zi ishlatilayotgan matn bilan faqat bir marta nutqiy vazifa

¹ Лопатин В.В. Рождение слова // Неологизмы и окказиональное словообразование. - М.: Наука, 1973. - С. 64.

bajarishi mumkin. Okkazional soʻz oʻzi ifodalayotgan maʼnosi bilan muayyan matnda faqat bir marta qoʻllangach, ikkinchi marta ayni shu maʼnoni ifodalamaydi.

Neologizmlar tezda umumxalq leksikasiga oʻtishi, osonlik bilan turli matnlarga moslashib ketishi va koʻp oʻtmay lugʻatlarda toʻla huquqli soʻzlar sifatida qayd etilishi va qayta-qayta qoʻllanishi bilan xarakterlanadi. Okkazionalizm esa oʻzi yaratilgan matndagina yashaydi¹ va bir martaligi bilan ajralib turadi.

6. Okkazional soʻzlarning taʼsirchanligi. Soʻzning taʼsirchanligi ikki xil boʻladi: soʻzning matn bilan bogʻliq holda yuzaga keladigan taʼsirchanligi va ichki taʼsirchanlik. Masalan, biror shaxsning xarakteri haqida soʻz ketar ekan, *tillo odam* deyish mumkin. *Tillo* soʻzi ushbu matnda taʼsirchan eshitiladi. Endi bu soʻzning toʻgʻri maʼnosini olib koʻraylik: *tillo uzuk*. Bunda faqat informativlik bor, taʼsirchanlik kuchi mavjud emas.

Ichki taʼsirchanlik matnga bogʻliq emas, balki u soʻz mohiyatiga xos bir narsadir.

Agar barqaror soʻzlar uchun nominativlik asosiy vazifa boʻlsa, okkazional soʻzlar uchun majburiy taʼsirchanlik xarakterli belgidir. Barqaror soʻzlarning hammasi ham ekspressiv boʻlavermaydi. Ularning asosiy qismi neytral maʼnoli boʻlib, tilning noekspressiv birliklarini tashkil qiladi.

Okkazional soʻzlarning taʼsirchanligi ichki xarakterga ega. Garchi ular matnga bogʻliq boʻlsa ham, oʻzining ichki soʻz yasashidagi alohida xususiyati tufayli oʻz-oʻzidan taʼsirchandir, okkazional soʻz matnga faqat maʼno jihatdan bogʻliq boʻlib, uning taʼsirchanligi matndan kelib chiqmaydi.

Turli okkazionalizmlarning okkazionallik darajasi ham, taʼsirchanligi ham har xil. Okkazional soʻz yasashida tildagi soʻz yasalishi qoidalarining shakliy va semantik buzilishi qanchalik kam boʻlsa, mazkur soʻzda okkazionallik va taʼsirchanlik shunchalik kam boʻladi va aksincha. Okkazional soʻzlarda nominativlikdan koʻra taʼsirchanlik xususiyati kuchli boʻladi. Ular taʼsirchanlik

¹ Аржанов А. Закон есть закон // Журналист. — 1968. — №3 —С. 20.

vositasi sifatida nutqning taassurotli ta'sirini kuchaytiradi va unga takrorlanmas o'ziga xoslik bo'yog'ini beradi. Masalan: *Yulduzlar, men sizga boqqanda xumor, Qalbmida yer ishq bo'ladi to'liq. Yulduzlar, bilmaysiz mening xalqimni, Bundayin zahmatkash yer yuzida kam. Yelda tinim bordir, unda yo'q tinim, SHunday ishparastdir u munisginam.* (A.Oripov)

SHoir *ishqparast* so'ziga paronim sifatida qo'llagan *ishparast* so'zida o'zbek xalqining zahmatkashligi ta'sirchan ifodalanadi.

7. Majburiy bo'lmagan nominatsiya. Bu xususiyat okkazional so'zlarning belgilaridan biridir. Borliq dunyo haqidagi tushunchalar so'zlarning leksik ma'nolarida o'z ifodasini topadi. Barqaror so'z tarixiy muhrlangan til birligi bo'lib, unda borliqning zarrasi aks etadi. Buni birmuncha soddalashtirilgan misollar bilan izohlash mumkin. Izohli lug'atlarda muayyan so'z ma'nosini tushuntiruvchi lug'at maqolalari matni ana shu so'zda mustahkamlangan "voqelik bo'lagi"ni umumadabiy til vositalari bilan bayon qiladi. Masalan, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da 1 Emadigan, ko'krakdan ajratilmagan bola. 2 ko'chma Turmush tajribasiga ega bo'lmagan: xom, g'o'r odam..." degan yozuvlarni o'qib, biz ulardan *go'dak* so'zining leksik ma'nolarini bilib olamiz. Kishilarning ijtimoiy-nutqiy tajribasida tarixan mustahkamlangan barqaror so'zning nominativ majburiyligi ham ana shundadir. Okkazional so'zlarga nominativ majburiylik xos emas. Unga xos bo'lgan nominatsiya boshqa barqaror so'zlar orqali ifodalanishi mumkin. Masalan, *maymuniyat* okkazional so'zi bildiradigan ma'no "maymunga xoslik" ifodasidagi barqaror so'zlar vositasida anglashilishi mumkin.

Yoki *zamonsoz* okkazionalizmini barqaror so'zlar ishtirokida tuzilgan "*zamonga moslashuvchanlik*" birikmasi bilan almashtirish mumkin. Har ikki almashtirilgan shaklda ham nominatsiyagina ifodalanadi, ekspressivlik bo'lmaydi. Ammo *maymuniyat* va *zamonsoz* so'zlari aytilishi bilan tinglovchiga eng avvalo ularning nominatsiyasi emas, ta'sirchanligi yetib keladi, undan keyingina tasavvurda obraz jonlantiriladi. Bundan tashqari, barqaror so'zlardagi nominatsiyaning ko'pchilikka tushunarli bo'lishi majburiy bo'lsa,

okkazionalizmlardagi nominatsiyaning hammaga tushunarli bo'lishi shart emas. Ularning ma'nosini tushunishni istagan odam okkazional so'z qatnashgan matnni o'qiydi, xohlamasa o'qimaydi. Ammo barqaror so'zlar nominatsiyasi har qanday holatda ham hammaning bir xilda tushunishi uchun majburiylik belgisiga ega bo'lishi shart.

8. Okkazional so'zlarning sinxron va diaxron qorishiqliqi. Bu alomat eng qiyin ilg'ab olinadigan belgi bo'lib, okkazional so'z til sistemasi koordinatining sinxron va diaxron o'qi kesishgan nuqtasida joylashganligidan kelib chiqadi. SHuning uchun ham okkazional so'z sinxroniya va diaxroniya o'rtasidagi aloqaning jonli ifodasi hisoblanadi.

Tilshunoslar sinxroniyaning diaxroniya bilan bog'liqligini necha bor ko'rsatganlar. Sinxroniya va diaxroniyani bir-biridan ajratish, bir-biriga qarama-qarshi qo'yish mumkin emas.

Okkazional so'zlar ham sinxron, ham diaxronidir. SHuning uchun sinxronki, barqaror so'zlarning o'zaro bir-biriga sistemali munosabati singari okkazional so'zlar ular bilan so'z yasash, semantik, grammatik va boshqa munosabatlar jihatdan munosabatga kirishadi va shuning uchun ham nutqda, ya'ni muomala jarayonining o'zida mavjud morfemalardan yaratiladi hamda til sohiblari tomonidan tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, funktsional jihatdan okkazional so'zlar tarixiy hayotning turli vaqt bo'laklari davomida o'sha ma'lum so'z sifatida xotiralanadigan barqaror so'zdan farqli ravishda diaxron kesik joy bo'yicha "cho'zilmaydi". Okkazional so'zlar shuning uchun diaxronki, ular nutqda ikkinchi marta va qayta xotirada tiklanmaydi. SHu tufayli bunday so'zlar paydo bo'lish omilining o'zida boshqa nutq hodisalari — vaqt jihatidan uzoq davom etadigan hodisalar davriy muntazamligi zanjiriga qo'shilib ketadi. SHunday qilib, okkazional so'zning vujudga kelish akti (diaxron momenti) va uning barqaror so'zlar bilan birga amal qilish akti (sinxron momenti) bir vaqtli, bir lahzalidir.

Sinxron-diaxron qorishililik faqat okkazional soʻzlarga xos boʻlib, barqaror soʻzlarga yotdir. Chunki barqaror soʻzlarda ular hayotining sinxron va diaxron jihatlari nisbatan bir-biriga bogʻliq emas va mustaqildir.

Okkazional soʻzlarning yuqorida koʻrsatilgan belgilari barcha shunday soʻzlar uchun birdek emas. Masalan, turli okkazional soʻzlardagi anormallik va taʼsirchanlik darajasi keskin farq qiladi. Okkazional soʻzning okkazionallik darajasi hatto nolga ham yaqinlashishi mumkin. Okkazionallik qanchalik kam boʻlsa, mazkur ikki belgi shunchalik boʻshroq namoyon boʻladi va aksincha. SHuni ham hisobga olish kerakki, barqaror va okkazional soʻzlar oʻrtasida bir-biriga oʻtish hollari ham boʻladi. Gʻafur Gʻulomning 1956 yilda nashr etilgan toʻplamida birinchi marta qoʻllangan *doʻstparvar* soʻzi uchraydi. 1964 yili “Sovet Oʻzbekistoni” gazetasida bu soʻz qayta qoʻllangan va til birligi maqomini olib, lugʻatdagi boshqa soʻzlar qatoridan oʻrin olgan¹.

SHuning uchun biz yuqorida koʻrsatgan belgilardan har biri alohida olinganda okkazional soʻzni boshqa birliklardan farqlash uchun yetarli boʻlmaydi. Faqat ularning hammasi birgalikda uni boshqa barcha til birliklaridan, umumxalq tilining boshqa kodifikatsiyalashmagan leksik elementlaridan aniq ajratishga imkon beradi. SHuning uchun okkazional soʻzlarni taʼriflashda ularning alohida xususiyatlarini hisobga olmoq kerak.

SHunday qilib, okkazional soʻzga quyidagicha taʼrif berish mumkin: ***okkazional soʻzlar oʻzida sinxron-diaxron qorishililik, meʼyorsizlik (anormallik), nutq uslubi yoki muloqotning ayni shu daqiqasida yuz beradigan nominatsiya, soʻz yasash xususiyatlarini oʻzida mujassam etgan ekspressiv nutqiy birlikdir.***

Birinchi bob yuzasidan xulosalar.

1. Okkazional soʻzlar lugʻat tizimiga kirmagan nutqiy birlikdir.
2. Okkazional soʻzlar ijodkor nutqining individual mahsuli boʻlib, favqulodda yaratiladi va doimo yangilik boʻyogʻini saqlaydigan nutqiy hodisadir.

¹ Б.Чориев. Гафур Гулом шеърятининг тили. —Т.: Фан, 1990. —Б. 96.

3.Okkazional so'zlar muallifning bor yoki yo'qligi, so'zninng yangilik o'lchovi, til lug'at tarkibiga kirish yoki kirmasligi, vaqt omiliga munorsabatiga ko'ra neologizmlardan farqlanadi.

2- BOB. OKKAZIONALIZMLARNING BADIY-ESTETIK VAZIFASI

Tilning lug'aviy boyligi bo'lmish har qanday so'zni ma'lum ehtiyoj, kommunikativ talab yuzaga keltiradi va bu so'zga muayyan vazifa yuklanadi. Mana shu xususiyat okkazionalizmlarga ham xosdir. Avval ham ta'kidlanganidek,

okkazionalizmlar biror tushunchani o'ziga xos tarzda, yangitdan va ko'p holda ta'sirchan ifodalash ehtiyoji bilan yaratiladi. Bunda so'zlovchidan ma'lum topqirlik, lisoniy mahorat talab qilinadi. Okkazional so'zlar qanday nutq tipida yuzaga kelishiga qarab, o'sha nutq talab qiluvchi vazifani bajaradi va bu orqali nutqning ma'noviy-nominativ, kommunikativ ehtiyojini qondiradi. Masalan, oddiy, neytral mavzuli nutqlarda okkazional so'z nisbatan oddiy kommunikativ vazifani o'tashi mumkin, ammo badiiy nutqda yaratilgan okkazional so'z badiiy-estetik vazifani o'taydi va o'zi mansub matnga badiiylilik bo'yog'ini baxsh etadi. Quyida okkazionalizmlarning mana shu xususiyatlariga to'xtalamiz.

2.1. Okkazionalizmlarning nutqiy vazifasi

Badiiy nutqda yaratilgan okkazionalizmlarni o'rganishdan shu narsa ma'lum bo'ldiki, ular turli funktsional xususiyatlarga ega. Quyida bu xususiyatlar bilan tanishamiz:

1. Okkazionalizmlar, shuningdek, barcha so'zlar, avvalo, nominativ vazifani bajaradi. Yozuvchi yoki shoir okkazionalizmlarni yaratar ekan, biror narsa, hodisa yoki tushunchani aniq, rangdor ifodalashga harakat qiladi. Bunda doim qo'llanib, biror narsani atab kelayotgan so'zlar o'zgartirilmaydi, balki u yoki bu predmet yoki tushunchani juda aniq atash uchun yoki nutq maqsadini to'la ifodalash uchun yetishmayotgan so'zning o'rnini to'ldirish uchun favqulodda so'zlar yaratiladi. Masalan: *Har nechuk, shoirman — sen bilan jondosh, To'yingda to'ydoshtman*, tirik yelkadosh. (A.Oripov) *"Rahmat" de, fazoda yo'ldoshlar uchun, Oyga inoq bo'lgan oydoshtlar uchun*. (M.SHayxzoda) *Bevijdon jangbozlar bilmaydilarki, Ilonga chaqtirmas bolasin shunqor*. (M.SHayxzoda)

Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Ko'rinadiki, *to'ydosht*, *oydosht*, *jangboz* okkazionalizmlari o'zlari ishtirok etayotgan ayni shu matnda tushunchani atash vazifasini bajarmoqda. Matnning bunday mazmun ifodalashida ko'rsatilgan okkazionalizmlarni boshqa so'zlar bilan almashtirib

bo'lmaydi. Lug'atimizda ularning ma'nosini beradigan, xuddi shu matnga mos keladigan so'zning o'zi yo'q. SHuning uchun ham bunday okkazonalizmlarning yaratilishini ijobiy hol deb baholaymiz. "Biz mavjud so'zni o'zgartirmaymiz, balki bizga kerakli, ammo yo'q bo'lgan so'zning o'rnini to'ldiramiz, — deydi Ye.A.Zemskaya. Agar tilning har bir uyachasini so'z bilan to'lgan yig'ma kassa sifatida tasavvur etsak, bunday hollarda (ya'ni okkazonalizm qo'llangan holatda — ta'kid bizniki; T.O.) so'zlovchi bo'sh uyachani to'ldirishga xizmat qiladi".¹ Bunday okkazonalizmlarning faqat nutqda yaratilishi "ularni nutq nominatsiyasi birligi"² deb atashga imkon beradi. Okkazonalizmlarning nominativ vazifasi misollarda ham ifodalangan: *Paxtazorda oydin bir kecha Yulduzlar-la g'o'zalar ulfat. Yulduzlarni desang **oybachcha** G'o'zalarning onasi mehnat...* (M.SHayxzoda) *Kimnidir axtarar, portlar bardoshi: "Hamon yelkadami o'sha **shumro'ylar**?"* (Mirtemir)

Yuqorida keltirilgan misollardagi okkazonalizmlarning hozirgi o'zbek adabiy tilida sinonimi mavjud emas. Ular obyektini bevosita ataydi va mavjud narsa, tushunchalarning hali ochilmagan qirralarini boshqa jihatdan ko'rsatadi. SHunday okkazonalizmlar ham mavjudki, ularni tilda mavjud terminlarning sinonimi deyish mumkin: *Ombor mudiri Isoqul bilan Ziyodullani, **molshunos** Ziyodqulni ham oyog'ini yerga tekkizmay topib keltirishibdi.* (S. Soliev) *Yetmadim yor vasliga, qalbiga san yet she'rim, Bunda ul do'nduqchani sanga **bolishdosh** qiladi.* (A.Obidjon) *Yaxshiyam jiyanim kutib turgan ekan. Buni qarangki, uyam **futbolgohga** tushgan ekan.* (N.Aminov)

Misollardagi *molshunos* - zootexnik, *bolishdosh* - yostiqdosh, *futbolgoh* - *stadion* o'rnida ishlatilgan. Ko'rinadiki, so'zlarning adabiy tildagi varianti o'rniga ularning dialektal shakllari ishlatilgan. "Bunday so'zlar tilning baholovchi vositasi emas, balki eng avvalo, aniq terminlar bo'lgani uchun o'zlaricha so'zlovchining his-tuyg'ularini ifodalamaydi. Aksincha, predmetlik

¹ Земская Е.А. Как рождаются слова. — М.: АН СССР, 1963. — С. 63.

² Болотов В.И. Структура окказионализмов и их функции в тексте // Актуальные проблемы русского словообразования. — Самарканд: СамГУ, 1982. —С. 246.

mazmuniga sub'ektiv munosabatni bildirish uchun bunday so'zlarni yo his-tuyg'u ifodalaydigan boshqa so'z bilan bog'lash, yoki sub'ektiv baho suffiksi bilan ta'minlashga to'g'ri keladi".¹ Yuqoridagi misollardagi okkazionalizmlar faqat atash uchun ishlatilgan, lekin ular tarkibidagi **-shunos**, **-dosh** affikslari, **goh** elementi bu so'zlar ifodalayotgan mazmunni muayyan sub'ektiv baho bilan boyitadi. Bu esa mazkur so'zlarga okkazionalizmlik xususiyatini bag'ishlaydi. Quyidagi okkazionalizmlarning adabiy tildagi sinonimlari mavjud. *O'zbekiya* - *O'zbekiston*, *sharbatfurush* - *limonad sotuvchi*, *bovurdoshlik* - *jigarbandlik*, *tillachi* - *paxtakor*, *raykatta* - *rayon rahbari*, *bog'chachi* - *bog'cha tarbiyachisi*, *o'zbekzoda* - *o'zbek farzandi*, *sukutgoh* - *qabriston*, *chopilmalar* - *chop etilgan material*, *baletqo'rg'on* - *balet teatri*, *yaylog'i* - *yaylovi*, *qo'shiqnigor* - *kontsert*, *saboqdosh* - *kursdosh*, *o'zbakiy* - *o'zbekcha*, *ovoznigor* - *magnitofon*, *yotoqqoh* - *yotoqxona*, *xabarkash* - *xabarchi* kabi.

2. Okkazionalizmlar xabar, ma'lumot (informatsiya) berish vazifasini bajaradi. Bunda okkazionalizmlar tinglovchiga yoki o'quvchiga kutilmagan yangi xabar beradi. Bu xabarning mazmuni voqea - hodisalar, ularning belgilari, shaxs faoliyatlarini ifodalaydi. Misollar: *Bu biz botir... bu biz har ishda **olamgir***. (G'.G'ulom) *Biri — bog' egasi, o'zgasi — **molchi***. (Mirtemir) *Yigit Majnun edi, qiz Layli edi, Bu — **oftobdil**, u — **oftobjamol***. (E.Vohidov)

Misollardagi har bir okkazionalizm o'zi anglatayotgan mohiyat haqida xabar beradi. Har bir xabar shaxs tavsifining tinglovchiga noma'lum bo'lgan qirralari haqidadir. Bu okkazionalizmlarning ayrimlari umumnutq so'zlariga o'xshab yasalgan. Qiyoslaylik: *jahongir* - *olamgir*; *chorvachi*- *ishchi* - *molchi*; *mohidil* - *oftobdil*; *sohibjamol* - *oftobjamol* kabi.

Yuqoridagi misollarda okkazionalizmlar shaxs faoliyati haqida xabar bersa, quyidagilar o'quvchi va tinglovchini faoliyatning belgilari bilan tanishtiradi: *Olis*

¹Ким Л.Л. Лексические средства послеоктябрьской сатиры Маяковского (к вопросу об оценочной функции слова): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. — Т.: 1956. — С.14.

*bir zamondan cho'ng elchi kabi. **Darhayrat** boqadi ... chor atrof ekin.* (Mirtemir)
*Pongvosh sahro mulkida toparmidi yo'l axir **Jayhunona** kurashga qodir kelmasa daryo?!* (O.Matjon) *Barra soqol **boltashakul** qaychulanib soz Va yana aft - angorimiz mullaga taqqos.* (A.Obidjon)

Yana shunday okkazionalizmlar borki, ular voqea-hodisa haqida xabar beradi: *Birovlar shivir - shivir gapirishadi, stollar osha **xatbozlik** qilishadi.* (P.Qodirov) *Mashinani terlatib paxta ko'rak terganlar, Qo'llarini tezlatib, hosillarni uzganlar **Xorazmlashsin** ishida, ahdni bajarishida...* (M.SHayxzoda)

SHaxs va voqea-hodisalarning belgilari haqida xabar beradigan okkazionalizmlar ham anchagina uchraydi: *Bu **yashinvor** chinqiriqli Turonda... "Unutganning kuysin ikki dunyosi".* (H.Xudoyberdieva) *Qarang, kelib- kelib bir **g'archashm** qassobga va'da beribman-a!* (N.Aminov)

Okkazionalizmlar hayotdagi hamma narsani, tushunchani ataydi ham, ularning faoliyati va belgilari xususida ma'lumot ham beradi. Bunday qo'llash ehtiyojdan kelib chiqadi. Ehtiyoj odamni gapirtirar ekan, tesha tegmagan, kutilmagan so'zlarni yaratishga ham undaydi. Bu tabiiydir.

2.2. Okkazionalizmlarning baholash vazifasi

"Okkazional so'zlar... insonning faqatgina intellekti - fikrlash qobiliyatigagina emas, balki uning hissiyotiga, voqelikni, dunyoni estetik jihatdan qabul qilishiga bog'liq holda dunyoga keladi."¹

Har bir ijodkor so'z yaratar ekan, shu so'z orqali o'zining ijobiy yoki salbiy munosabatini ham ifodalaydi. To'plangan okkazionalizmlarni o'rganib chiqish shuni ko'rsatdiki, ularni baholash vazifasini bajarishiga ko'ra quyidagiga bo'lish mumkin.

1.Neytral ma'no ifodalovchi okkazionalizmlar: *bog'chachi, qasamnoma, to'ydosh, kafegoh, futbolgoh, vazifashunos, restorangoh, vayronaxona,*

¹ Лыков А.Г. Окказиональное слово — как лексическая единица речи // Филологические науки. — 1971.— №5 . — С. 78.

baletqo'rg'on, chopilma, to'yxo'r, tamoshagoh, guzargoh, sukutgoh, sababkor, sirilmoq, ayovligim, g'ururdosh, avtoqalam, o'zbekzoda, zahmatchi, ehtiyojmand, mehnatxona, nonxona, xayolxona, zilzilakor, jangboz, o'chkor, shubhagar, fazoshumul, uxdadosh, bayroqdosh kabi. Misollar: Bosh **kasalkor** kampir bilan salomlashib, so'ng sariq, ag'darma mahsi –kalishini shapillatib kasallar oldiga o'tdi. (A.Muqimov) Qora sochlar ko'rki **o'zbakiy** do'ppi. (Mirtemir)

2. Ijobiy bo'yoqqa ega bo'lgan okkazionalizmlar: *yulduzkent, oydossh, nur kema, she'riston, kavkabiston, zafaryot, safodo'z, sersehr, she'rparast, dilparast, o'tbardor, fikrchan, xushso'z, Donishqishloq, novvot qoya, qoyabardosh, sho'xona, quyoshpayvand, jarangsoz, tavezekor, shafaqqun, bahornaqsh, serfusun, asaliston* kabi. Misollar: Hilol ham lol boqarmish **munгноz** chehraga. (Dilbaroy) **Baxmalpo'st** anjirlar bekam, bexato. (N. Parda) Topshirishib meni **serardog'** xonam qo'liga... (Zulfiya)

3. Salbiy buyoqqa ega bo'lgan okkazionalizmlar. Bularni ikki guruhga bo'lish mumkin:

a) kinoya, piching ma'nosini ifodalovchi okkazionalizmlar: *Qishboy, sigirboz, nafosatboz, tekin hurmat, progul tumov, Yaxshi Yamoniy, kadrcha, mazmundor magazin, kassa shamollagan, maymuniyat, maymuniy, soqoldosh, molshunos, xurrakchilar* kabi. Misollar: Ajab bo'libdi, bilaman Siz o'lgurni, yana **sekretarbozlikmi?** (N.Aminov) ... xotinboz emas, **sigirboz**, — dedim. (N.Aminov) **G'o'zapoyahokim** farmon bitadi yana yashashga. (A.Qutbiddin)

b) voqea, hodisa, shaxslarning salbiy xususiyatini ko'rsatuvchi okkazionalizmlar: *boltashakul, podshohparast, o'yparast, taxtparast, shonparast, o'larmandlik, shumro'y, ranjidaxotir, qo'ng'iroqzor, kitobyoyar, devqarash, bo'yterak, dirdov, vahimador, g'alvador, g'archashm, puchak jonlar, tirik devor, dahanaparastlik, dollarzoda, Kalamushzor, shovqinzor, o'zso'zlik, bo'ronzoda, osqin, buyruqrot, o'riston, chivinxaroba, xudparastlik, zarxo'r* kabi. Misollar: Uyning bir cheti to'la **yig'loqigul** edi. (S. Nur) Alamingga nihoya,

*Ne **taxtparast** odamsan. Sen shoh, Senga himoya yo'q, ammo, netay, otamsan.* (E.Vohidov) *Sen shuncha yuksaltgan bayroq tegsinmi Molparast, **shonparast**, nopok qo'llarga?!* (O.Matjon) *Asad kirdi. Kunduzlari "**Kalamushzor**" adirlar lovillab qishloqqa qaynoq harorat purkaydi.* (A.Rizaev) *Men xayolni she'rga soldim, **O'yparast** bo'lma va lek Besamar bo'lsa, seni Bir kun xarob aylar xayol.* (E.Vohidov)

Bunday misollarni yana davom ettirish mumkin. Har qanday holatda ham okkazionalizmlar ijodkorning o'z hissiyotini to'laqonli ifodalashga xizmat qiladi yoki narsa, voqea-hodisa, shaxslarning ijobiy hamda salbiy xususiyatlarining barcha qirralarini aks ettirish uchun lug'atlardagi mavjud so'zlarning imkoni bo'lmaganda, bu vazifani bajarish okkazionalizmlarga yuklatiladi. Lug'atlarda berilgan hammaga ma'lum bo'lgan so'zlardagi imkoniyat so'zlovchining tasavvurida aniq gavdalanadi. Masalan, "*ko'z*" so'zi matnlarda o'z imkoniyatini namoyon etadi: *odamning ko'zi, uzukning ko'zi, tizzaning ko'zi, ishning ko'zi, yog'ochning ko'zi, derazaning ko'zi, qalb ko'zi* kabi. *Ko'z* so'zining har bir ma'nosi birikmada keltirilgan so'zlarning ma'nolari o'zaro bir-biriga ta'sir qilishi natijasida ro'yobga chiqadi. Demak, hammaga ma'lum bo'lgan muayyan so'zlar matnga bog'liq bo'lar ekan, shu bilan birga ularning o'zlari ham shu matnning shakllantirilishi uchun xizmat qiladi. Okkazional so'zlardan *nazmro'y, turmushaviy, aqlavval* kabilar so'zlovchi va tinglovchi tasavvurida o'ta mavhum gavdalanadi. Ularning ma'nolari matndagina ro'yobga chiqishi mumkin. Ana shundagina ularning ma'nolari qanday maqsad uchun kerak bo'lganligi ravshanlashadi.

SHunday nutqiy vaziyatlar bo'ladiki, ularni tasvirlash uchun odatdagi lug'aviy birliklarning ma'nosi kamlik qiladi. SHuning uchun hali so'zlovchining ham, tinglovchining ham tasavvurida gavdalanib ulgurmagan, hali matnda reallashish imkoniyatiga ega bo'lmagan so'z yaratishga to'g'ri keladi. A.G.Likov odatdagi so'zlar bilan okkazional so'zlarni qiyoslar ekan, ularning bir-biridan farqini juda ajoyib o'xshatish orqali ko'rsatib beradi. Olim

shunday deydi: "Agar til sintagmatik-paradigmatik munosabatlar kesishgan to'rxalta ("setka") bo'lsa, til birligi til tizimidagi shu to'rxalta kataklarini to'ldiruvchi vositadir. Okkazional so'zlar bo'lsa til sistemasining bo'sh kataklarini vaziyatli — nutqiy to'ldirishdan boshqa narsa emas. SHuning uchun ham okkazional so'zlar o'zlarining bevosita nutqiy realizatsiyasida leksik tuzilishi yoki so'z yasalishi jihatidan o'ta xususiydir".¹

G.Paulning mana bu qiyosi ham okkazional so'zlar bilan uzual so'zlarning farqini yana bir tomondan ko'rsatadi: "Okkazional ma'no odatda uzual ma'noga qaraganda mazmun jihatdan boy va hajm jihatdan torroqdir".²

Yuqorida guruhlar bo'yicha sharhlangan okkazionalizmlar ham ana shunday mazmundor, ammo qo'llanishi jihatidan juda cheklangan. Ular nutqda "atigi bir martagina ishlatiladi, ammo til birligi bo'lgan odatiy so'z ifodalay olmaydigan nutqiy vaziyatning noyob, yagona, nodirligini, ya'ni uning cheklangan, bir martagina anglashiladigan aniqligini aks ettiradi".³

SHunday bo'lgach, o'z o'rnida ishlatilgan okkazional so'zlar nutq ko'rki uchun aynan kerak vositalardir.

2.3. Okkazionalizmlarning badiiy -estetik vazifasi

Badiiy asarlar, ayniqsa, she'riyat badiiy okkazionalizmlar yaratiladigan maydon hisoblanadi. SHoir yoki yozuvchi o'zining xayoliy dunyosini kitobxonga yetkazish uchun izlanadi. Badiiy adabiyotda nafaqat mazmun, balki so'zning qanday jaranglashi ham ro'ly o'ynaydi. Mazmun va jarangdorlik birgalikda ta'sirchanlikni vujudga keltiradi. Demak, badiiy nutqda asosiy e'tibor ana shularga qaratiladi. Badiiy nutqda ishlatilgan okkazionalizmlarni o'rganishdan shu narsa ma'lum bo'ldiki, ular quyidagi maqsadlarda qo'llanadi:

¹ Лыков А.Г. Окказиональное слово — как лексическая единица речи // Филологические науки. — 1971. — №5. — С.76.

² Пауль Г. Принципы истории языка. М.: Изд. иностр. литературы, 1960. — С.94.

³ Лыков А.Г. Кўрсатилган асар. —Б. 75.

1. Okkazionalizmlar tilda mavjud bo'lgan tushunchalarni boshqacha ifodalash uchun xizmat qiladi. *Soyador, shafaqqun, jarangsoz, kalidlamov* kabi okkazional so'zlar ishtirok etgan matnga e'tibor beraylik: *Qandoq salqin soyador, Nima desang bari bor.* (Mirtemir) *Tong unga bergan oqlik, Solgay bahor gullarin, May nush etib shafaqqun Bechora lola bo'lgay.* (E.Vohidov) *SHu qo'shiq, shu jarangsoz negizida o'sha kun...* (Mirtemir)

Tilimizda *soyador* so'zi mavjud emas. Uning ma'nosini ifodalaydigan *soyali, soya- salqin, sersoya* so'zlari bor. Ularga lug'atda izoh berilgan¹. SHoir ularni ishlatmaydi, ularda yangilik, bo'yoqdorlik yo'q, shuning uchun *soyador* so'zini yaratgan. *Jarangsoz* so'zi ham tilda mavjud bo'lgan *jarangdor, jarangli* so'zlari ifodalaydigan ma'noga yaqin, lekin bu misralarda ularni qo'llab bo'lmaydi. *Serjarang, jarangli* so'zlari biror predmetning belgisini bildiradi. Ammo xuddi shunday xususiyatli tushunchani anglatadigan yangi so'z kerak. Mirtemir ana shunday ham belgi, ham predmet bildiradigan so'z yaratib, *qo'shiq* so'zining xususiyatini yana ham bo'rttirib ko'rsatadi va shu orqali o'z tuyg'usini ifodalash imkoniga ega bo'ladi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *shafaqrang* so'zi qayd qilingan², ammo *shafaqqun* so'zi mavjud emas. E.Vohidov bu so'zni yaratib, misralarda badiiylikning yanada ifodali bo'lishiga erishgan. *SHafaqqun* okkazionalizmi tilimizda mavjud *gulgun* so'ziga analogiya asosida yaratilgan. *Gulgun* so'ziga lug'atda "gul kabi yashnagan... go'zal, chiroyli" deb izoh berilgan³. *SHafaqqun* ham "shafaq kabi yashnagan" deb izohlanishi mumkin. Agar *gulgun* va *shafaqqun* so'zlarining ma'nolari qiyoslansa, ular bir-biriga juda yaqin. *Gulgun* deganda qizil, alvon, qirmizi, ol ranglari⁴ tasavvurda namoyon bo'ladi. SHafaq ham quyosh botayotganda ufqda paydo bo'ladigan lolarang qizillikni bildiradi⁵.

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II том. — М.: Рус тили, 1981. — Б.40,72.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II том. — М.: Рус тили, 1981.— Б. 402.

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II том. — М.: Рус тили, 1981.— Б. 196.

⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II том. —М.: Рус тили, 1981.— Б. 196.

⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II том. — М.: Рус тили, 1981.—Б. 402.

Bilar edik— qaytish muqarrar, Yig'lar edik... ammo ko'z yoshin Kalidlamoq mumkinmi magar? Dard bor edi dilda otashin ... (M.SHayxzoda)

Kalidlamoq okkazonalizmi *qulflamoq* so'zi o'rnida qo'llanganday ko'rinadi. CHuqur tahlil qilinsa, *qulflamoq* "biror yopiladigan joyga qulf osib, chiqmaydigan, kalidsiz ochilmaydigan qilib qo'ymoq"dir¹. "*Kalidlamoq*" esa "*kalid solib qo'ymoq*" ma'nosini bildiradi. Demak, "*kalit bilan ochiladi*" yoki "*qulfdagi kalit turadi*". Misolda "*ko'z yoshining*" o'ziga kalit solish mumkin yoki mumkin emasligi ma'nosi ifodalanadi. Bunday holatda nutqiy vaziyat "*kalitlamoq*" so'zini ishlatishni talab etadi. SHoir adabiy tildagi *kalit* so'zini asliga ko'ra "*kalid*" deb ishlatadi. Bu ham okkazonallikning vujudga kelishiga ozgina bo'lsa ham turtki bo'lgan. Demak, sanab o'tilgan okkazonalizmlar mavjud tushunchani boshqacha shakl bilan anglatadi va shu orqali nutqiy rang-baranglik vujudga keladi.

2. Okkazonalizmlar so'zga yangi semantik ma'no yuklash uchun ishlatiladi. Masalan, *sigirboz*, *sekretarboz*, *g'ururdosh*, *qozondosh* kabilar ishlatilgan matnga e'tibor beraylik: *Bir buqa sigirlarni qiyratib quvib yurardi. Narimon aka: —Qarang, qarang, — dedi qiyqirib, — xotinboz ekan! SHunda men: — Xotinboz emas, sigirboz, — dedim.* (N.Aminov) *Sigirboz* okkazonalizmi tilimizda mavjud bo'lgan *xotinboz* so'zi shakli asosida yaratilgan. *Xotinboz* so'zi insonlarga nisbatan aytiladi. Bu so'z ushbu matnda qo'llanilganda, odatdagi so'z bo'lib qolar edi va badiiylik u qadar to'laqonli bo'lmasdi. N.Aminov *sigirboz* okkazonalizmini yaratish bilan mazkur matnning badiiyligini shunday bir darajaga ko'targanki, natijada hech kimning xayoliga kelmaydigan va ayni holatda uzukka ko'z tushgandek yangi nutqiy vaziyat vujudga kelgan: fikr hazil tarzida ifodalanib, nutqning emotsionalligi yanada kuchaytirilgan.

3. Ayrim okkazonalizmlar so'z shakllarini buzib, boshqacha shaklda ishlatish asosida vujudga kelgan va turli nutqiy talablarga ko'ra qo'llanadi: *Sanoqsiz qo'ralarning tizzadan o't - yaylog'i, Qumlarning o'rtasida to'kin*

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II том . —М.: Рус тили, 1981.— Б. 618.

mevazor bog' (Mirtemir) yoki: *Qalbida gurlagan ishq o'ti.* (U. Nosir)
—*Kolxozdan keldingizmi?* —*Kechirasiz, gulxozdan kelyapman.* —*Bir narsani kollektiv bo'lib...* —**Gullektiv** bo'lib, — dedi Zoyir —*Kallapushni...* —**Gullapushni deng-e!** (N.Aminov)

Misollardagi *yaylog'i*, *gurlagan* okkazonalizmlari *yaylov*, *gurullagan* so'zlarini noto'g'ri talaffuz qilish tufayli paydo bo'lgan. She'riy talab shunday talaffuz etishni taqozo etadi, *yaylog'i* - *bog'i* tarzida qofiya vujudga kelgan; *gurlagan* okkazonalizmi esa oddiy so'zlashuv nutqida ishlatiladigan *gurullagan* so'ziga nisbatan ixcham, she'riy shakl ehtiyojiga ko'ra yaratilgan. Misoldagi *kolxozni gulxoz*, *kollektivni gullektiv*, *kallapo'shni gullapo'sh* tarzida buzib talaffuz qilish o'tkir yumoristik vaziyatni vujudga keltirgan. Quyidagi misoldagi so'zlarning talaffuzi ham orfoepik me'yorga to'g'ri kelmaydi. Ana shu to'g'ri kelmaslik okkazonallikni vujudga keltirgan va kulguli nutq vaziyati ifodalangan: *Barra soqol boltashakul qaychulanub soz Va yana aft-angorimiz mullaga taqqos Va yana til ostiga besh-olti cho'qim nos. Eski shahar bozoridan olg'on semiz g'oz, Rasta kezib yurduk lapang g'ozga qilib mos.* (A.Obidjon)

Bu she'riy misralardan kelib chiqadigan umumiy nutqiy vaziyat kulgi uyg'otish. Ana shu maqsad bilan *boltashakl* o'rnida *boltashakul*, *qaychilanib* o'rnida *qaychulanub* ishlatilgan.

Badiiy nutq okkazonalizmlari muayyan badiiy-estetik vazifa bajaradi. Bunday vazifa okkazonalizmlarning tabiatidan, mohiyatidan kelib chiqadi. Bu — bir tomoni, ikkinchidan, mazkur vazifa badiiy nutq vaziyati bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Faraz qilaylik, bir tomonda — til birliklari, ikkinchi tomonda — nutq birliklari. Ular bir-biriga nisbatan zidlanish munosabatida bo'ladi, chunki til birliklari nutqiy vaziyatni hamma vaqt ham to'laqonli ifodalash imkoniyatiga ega bo'lmasligi mumkin¹. Nutqning og'zaki ko'rinishida har xil imo-ishoralar (ekstralingvistik omillar) topilmagan birliklar o'rnini to'ldirish uchun

¹ Серебrenников Б.А. Номинация и проблема выбора // Языковая номинация (Общие вопросы). - М.: Наука, 1977. — с.147 и сл.

xizmat qiladi. Badiiy adabiyotda ijodkorning yaratayotgan badiiy olamini to'laqonli ifodalash uchun nafaqat mavjud til birliklaridan foydalanishga, balki estetik qimmatga ega bo'lgan boshqa birliklarni yaratishga ehtiyoj tug'iladi. Ana shu boshqa birliklar okkazionalizmlardir. Bular nutqda - individual nutqda vujudga keladi. Yaratilgan so'zshakl aslida mavjud til birliklari asosida paydo bo'ladi, ammo hali ma'lum emasligi, betakrorligi, ayniqsa, estetik funktsiyani bajarishi jihatidan lug'aviy birliklardan farq qiladi. SH.Ballining mana bu fikri juda o'rinlidir: "Agar olim yoki muhandis tilning shaxsiy bo'lmasligi, yanada mantiqiyroq, tushunarliroq bo'lishi uchun o'zgartirsa, yozuvchi uni eng shaxsiy fikrlarni ifodalashga yaroqli, ya'ni affektiv va estetik mazmunga ega bo'lishi uchun qayta yaratadi".¹

Haqiqatdan ham biz to'plagan okkazionalizmlarning deyarli barchasi ijodkorlarning o'ta shaxsiy, o'ziga xos fikrlarini ifodalaydi. Masalan, M.SHayxzoda ijodiga xos bo'lgan *oybachcha, tundalik daftar, yurakdosh, nafosatboz, oydosh, mehnatdosh, jangboz, ko'z yoshin kalidlamoq, shabiston, xorazmlashsin, xayolxona, g'ayratmandlik, baxtsozlik* kabi okkazionalizmlar; A.Oripov qalamiga mansub *maymunona, maymuniyat, fikrchan, majnunshior, g'ururdosh, naykamalak, abadiyan, ro'yintan daho, zamonsoz, taqdirdosh, xudochalar, yalang'och satrlar, Mustayiston* kabilar; E.Vohidov yaratgan *fikrat qutisi, charxi balokash, betarosh, kavkabiston, tomoshagoh, bardavon, Donishqishloq, Donishgazet, sohibxayol, haqqesha, shafaqqun* kabilar; Mirtemir ijod etgan *tillachi, darhayrat, ta'zimkor, o'zbekiy, zafaryob, o'zbaki, obdor, qo'ltiqdosh, tilovlim, soldovchi* kabilar; O.Matjon she'rlarida uchraydigan *bahornaqsh, dolg'alatuvchi, turmushtab, SHamolboshi, Yulduzot, tomirband, foydaparast* kabilar; N.Aminov asarlariga xos bo'lgan *g'archashm, labchok, sho'riston, ovoznigor, qo'shiqnigor, kadrcha, sigirboz, antitepakalin, maqomgoh, akagoh, davlatgoh, to'yxo'r, yotoqqoh, restorangoh, xabarkash, gullektiv,*

¹ Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. —М.: Изд. Иностран. литературы, 1955. — С.28.

gulxozchi, gullapo'sh kabi; P.Qodirov yaratgan *konkurslashmoq, tuhmatkash, progul tumov, tekin hurmat, dahanaparastlik, xatbozlik* kabilar; Anvar Obidjon asarlaridagi *baletqo'rg'on, fabrikon, o'chkor, daraxtparast, qozondosh, tulakzoda, g'ozlanub, bezgakshamol, bedasoch* kabilar; Tohir Malik asarlaridagi *shaytanat, shaytonsaroy, musulmonsheva, Ingliston, boshi buzuq, tabibboshi, qorong'u bashara, indamaslar dunyosi* kabi okkazionalizmlar diqqatga sazovordir. Mana shunda har bir ijodkorning shaxsiy mahorati namoyon bo'ladi va o'quvchilarda diqqat-e'tiborning kuchayishiga olib keladi. Bu eng avvalo so'zning ifoda shakli, so'ngra uning ma'nosi haqida o'ylashga turtki bo'ladi. Bu so'zlar bilan tanishgan har bir shaxs oddiy so'zlarga nisbatan ulardan o'ta ta'sirlanadi, chunki ulardagi yangilik, bo'yoqdorlik o'quvchi diqqatini jalb etishi shubhasiz. B.V.Tomashevskiyning quyidagi fikrlari bu mulohazalarni yana bir bor to'ldiradi: "Bu yangi yasalmalar ... nutqiy takrorlardan (shablondan) qochish uchun, doimiy ishlatiladigan ifodalarni yangilash uchun yaratiladi".¹

Demak, okkazionalizmlar o'quvchi yoki tinglovchilarning hissiyotiga ta'sir etib, ularda yangilanish, ta'sirchanlik yoki qo'zg'alishni vujudga keltirar ekan, bu estetik vazifaning namoyon bo'lishidir. Biz to'plagan misollar ichida *bahornaqsh, g'azalnaqsh* okkazionalizmlari tarkibidagi tanlangan so'zlarning o'ziyoq kishida estetik zavq uyg'otadi. *Bahor* — yoshlik, gul faslini, *g'azal* — ichki dunyo sirlarini aks ettiruvchi so'zlar bo'lsa, *naqsh* esa mana shu tushunchalarning ajib shakllarda ifoda etilishidir.

She'riston — she'rlar jamlangan bir xayoliy o'lkani tasavvurimizda jonlantirar ekan, o'zbek tilining so'z yasash qolipida mavjud bo'lgan *-iston* affiksining adabiy me'yorga mos bo'lmagan so'z yasashda ishtirok etishi ekspressivlikni vujudga keltiradi va shu orqali estetik funktsiya bajaradi.

Mana bu misolda ham okkazionalizmlarning estetik vazifasi o'zgacha jihatdan ifodalanadi: *Ko'z oldida fazoli manzaralar Bo'yoqlarga to'lgan*

¹ Томашевский Б.В. Теория литературы. Поэтика. — М. — Л. 1931. — С .25-26.

xayolxonasi, Lojuvard ko'k, zumrad chaman daralar Ko'k telpakli ko'kimtil tog' siynasi. (M.SHayxzoda)

SHe'rdagi qaysi misra okkazionalizm emas? *fazoli manzaralar, bo'yoqlarga to'lgan xayolxonasi* faqat bir marta ishlatilayotganligi, g'ayritabiiyligi bilan inson hissiyotiga ta'sir etadi. Bu o'rinda mavjud til birikmalari nutqda o'zgacha birikmalar hosil qilib, til bilan nutq orasidagi munosabatda zidlik namoyon bo'lmoqda va bu zidlik estetik qimmat kasb etmoqda.

Demak, til va nutq birliklarining o'zaro zid munosabatda bo'lishi natijasida vujudga kelgan g'ayritabiiylik okkazionalizmlarni paydo qiladi, ya'ni til birliklari nutqda adabiy she'r o'lchovidan chetga chiqadi va kutilmagan nutqiy shakllar yaraladi.

Bu nutqiy shakllar yuqorida sanalgan nominativ, xabar berish, baholash vazifalari bilan birga estetik vazifani ham bajaradi. SHuni alohida ta'kidlash lozimki, okkazionalizmlarning baholash vazifasi estetik vazifa bilan qay jihatdandir chatishib ketadi. Agar ijobiy ma'no ifodalaydigan okkazionalizmlar estetik kategoriyalardan biri — go'zallik bilan ma'no jihatdan aloqador bo'lsa, salbiy ma'no ifodalaydigan okkazionalizmlar esa xunuklik kategoriyasi bilan bog'liq bo'ladi. Go'zallik va xunuklik ma'nolari ifodalanib, inson ruhiyatiga ta'sir qilish, unda zavq-shavq, o'ychanlik, taajjub yoki nafrat tuyg'ularining vujudga kelishiga turtki berishi okkazionalizmlarning estetik vazifasidan kelib chiqadi. Okkazional so'z shunday birlikki, u kishini nafaqat aqliy bilimga, balki hissiy bilishga, ya'ni voqelikni estetik jihatdan qabul qilishga undaydi¹.

2.4. Okkazionalizmlarning obrazlilikni ifodalash vazifasi

Okkazionalizmlarning obrazlilikni ifodalashi badiiy nutqda namoyon bo'ladi. Bunday okkazionalizmlar badiiy nutqning materialiga singishib ketadi. Ularning

¹ Панфилов В.З. Философские проблемы языкознания. — М.: Наука, 1977. — С.86 и сл.

obrazlilikni ifodalashi estetik funktsiya bilan birga chatishib ketadi, ya'ni biror obrazli nutq vaziyatini yaratish uchun okkazionalizm xizmat qiladi va paydo bo'lgan holat estetik tuyg'u uyg'otadi. Masalan: *bezgakshamol*, *baletqo'rg'on*, *yashinso'ngi*, *yapaloqbarg* okkazionalizmlarida so'zlarning g'ayritabiiy qo'shilishini ko'ramiz. Bunday qo'shilishlarda komponentlarning birortasi orqali asosiy ma'no ifodalanadi, har ikkala qismning qo'shilishi esa betakror, yangi tasavvur tug'diradigan ma'no anglatadi.

Bezgak — qaltiratadigan, titratadigan kasallik bo'lsa, *shamol* so'zining unga qo'shilishi natijasida obrazli ifoda yaratiladi. Bunday shakl na xalq tilida, na adabiy tilda mavjud. Bu okkazionalizm obrazlilikni yuzaga keltirish uchun yaratilgan.

Baletqo'rg'on okkazionalizmining komponentlari ham alohida qo'llanganda kishi hissiyotiga ta'sir qilmaydi, ammo bu qismlarning qo'shilishi kishini bir lahza o'ylantiradi va e'tiborini bir joyga to'plashga undaydi. O'quvchi tasavvurida balet bo'ladigan joy — teatr gavdalanadi, demak , okkazionalizm obraz yaratish vazifasini o'tagan.

OYashinso'ngi okkazionalizmi komponentlari anglatadigan ma'nolar alohida olinganda *yashinning* bahor oylarida bo'ladigan tabiat hodisasi ekanligi va *so'ng* nimadandir keyingini bildirsa, ularning qo'shilishidan hosil bo'lgan shakl yana fikrlashga turtki beradi. *Yashin* — chaqnaydigan, osmonni bir zumgina yoritadigan hodisa. *Yashin* bo'lib o'tganda, odamda yuzaga keladigan hissiyotni gavdalantiradigan bu obrazli okkazionalizm ham o'z vazifasini bajargan.

Yapaloqbarg okkazionalizmi esa e'tiborni barglarga tortadi: nimaning bargi yapaloq? Uning oldidan "nordon" so'zining keltirilishi bu bargni iste'mol qilish mumkin degan fikr uyg'otadi. Misollarda bu so'z nimaga nisbatan ishlatilgani ma'lum emas, ammo o'quvchi tahlil orqali uning nimaligini bilib oladi. Demak, bu okkazionalizm ham obrazlilikni ifodalash uchun xizmat qiladi. Yuqoridagi okkazionalizmlar ishtirok etayotgan matnga e'tibor beraylik: *Bir*

tomonda **baletqo'rg'on**, Tomoshasi ur – to'polon. (A.Obidjon) *Ko'rdim yashin chaqnaganini, Eslab qololmadim tusini biroq. Osmon keng, Yer ham keng. Bu kengliklar — Yashinso'ngi hislar makoni.* (S.Ibrohimov) *Quchog'ing bir saxiy mezbon "Do'stlarga elt bizdan ol!" Degan kabi tutar yapaloqbarg chukrisin.* (N.Parda)

Matndan ham ko'rinadiki, nutq vaziyati bilan tanish bo'lmagan shaxsning okkazonalizm ma'nosini aniq tushunib olishi qiyin bo'ladi. SHuning uchun okkazonal ma'no ifodalanadigan maxsus matn talab qilinadi. Bu so'zlar tilda mavjud bo'lgan so'z yasash qolipi asosida hosil bo'lgan: *bezgakshamol*, *baletqo'rg'on* — ot +ot qolipi asosida (tilda *tomorqa*, *belkurak*, *nomozshom* kabi qo'shma otlar mavjud), *yapaloqbarg* — sifat + ot qolipi asosida (tilda *Ko'ksaroy*, *Yangiqo'rg'on* kabi yasamalar bor) yaratilgan. Sirtidan qaralganda g'ayritabiiylik yo'q, ammo so'zlarning qismlari ifodalaydigan ma'nolar bir-birini taqozo etmaydi. SHunga qaramay, ijodkor odatdagi "yorlig'i bor" so'zlar qurshovida ularning yangiligini, hali "ohori to'kilmagan"ini ko'rsata oladi. Demak, bu xususiyatlar ular tarkibidagi qismlarning g'ayritabiiy qo'shilishidan kelib chiqadi.

Yashinso'ngi okkazonalizmi ot+ko'makchidan iborat. Bunday yasaliş o'zbek tilida deyarli uchramaydi. Demak, so'zning o'zi ham, yasaliş qolipi ham g'ayritabiiy. Bu so'z matndan tashqarida aniq ma'no ifodalamaydi, "hislar"so'zi bilan birikma hosil qilgandagina uning ma'nosi bir oz oydinlashadi.

Yapaloqbarg, *majnunshior*, *g'archashm* kabilar o'zbek tilidagi sifat+ot (*Oqtepa*, *Yangiyo'l*, *Yangiqo'rg'on* kabi) qolipi asosida yasalgan. Demak, yasaliş strukturasi tilda mavjud, yangi emas.Ammo bunday so'zlarning tarkibidagi komponentlarning g'ayriodatiy qo'shilishi okkazonallikni vujudga keltirgan va shu orqali betakror obraz yaratilgan.

Yana shunday okkazonal birikmalar borki, ular ham so'zlarning bog'lana olish imkoniyatlari juda keng ekanligini va shu orqali obraz yaratish diapazonining ko'p qirraliligini namoyon etadi. Bular: *sariq vujudcha*,

puchak jonlar, dili so'zon, dori olami, Yaxshi Yamoni, novvot yer, progul tumov, tekin hurmat, ostin-ustin polkovnik, teatr kassasi shamollagan kabilar bo'lib, ularda so'zlarning "semantik valentligi buzilgan"¹. Bunday buzilish okkazonalizm yaratuvchining maqsadini aniq ifodalashga xizmat qiladi. Ijodkor o'zi yaratgan yangi so'zlari orqali ichki hissiyotini yorqin namoyon etadi va okkazonalizm aks ettirayotgan tushuncha yoki predmet, hodisaga bo'lgan munosabatini aniqroq, yorqinroq ko'rsatadi. Bu bilan o'quvchi — qabul qiluvchining ongiga, sezgisiga lug'aviy birikmalar orqali kuchliroq ta'sir etishni nazarda tutadi, shu orqali qabul qiluvchining tasavvurida betakror obraz yaralib, uni yanada boyitadi. Tasavvur qilaylik: "sariq vujudcha" deganda nima ko'z oldimizga keladi? Bu so'z birikmasi bilan tanishib, eng avvalo uning nimaga yoki kimga nisbatan ishlatilishi mumkinligi to'g'risida bosh qotiriladi, demak, uning ma'nosiga kuchli e'tibor qaratiladi. Bu so'z birikmasi qatnashgan matn ham go'yo ataylab tilsimli yaratilganday:

Uning sariq vujudchasi "lov" etdi faqat,

Bilmam, uni maftun etmish qandoq manzara?

Ne bo'lsa ham xotiramda qoldi shu holat,

Mening murg'ak shuurimda ochildi yara. (A.Oripov)

Bu matn *sariq vujudcha* okkazonalizmining ma'nosini yuzaga chiqara olmaydi. Ammo shu she'rning "Jo'ja" degan sarlavhasi so'z nima haqida ketayotganini ko'rsatadi.

Mana bu misollardagi okkazonal birikmalar esa o'quvchida mavhum tushuncha hosil qilmaydi, balki yozuvchining topqirligiga qoyil qoldiradi: — *Ha, Obid Yo'ldoshevich, xabaringiz bor, bir **progul tumoviga** yo'liqqan edik. Hammani shu tumovga qarshi safarbar qildik.* (P.Qodirov) *Bu **qorong'u basharada** aql ko'rinmayapti-ku!... Anvar beixtiyor **indamaslar dunyosiga** kuzatiladi.* (T.Malik) *Ammo Jalil bu davrada, o'z iborasi bilan aytganda,*

¹ Ретунская М.С. Английское окказиональное словообразование (на материале существительного и прилагательного): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. — Горький, 1974.— С.8

"shaytonsaroy"da moziy yodgorxonasining qirilib ketayotgan pokizalik ramzi sifatida saqlanuvchi anjomi kabi asraladi. (T.Malik)

Bu misollardagi *progul tumovi* birikmasidagi *tumov* soʻzi oʻquvchi ongida kuz va bahor oylarida aholi oʻrtasida keng tarqaladigan betoblikni tasavvur qildiradi. *Progul tumovi* birikmasi esa hajviy obrazni gavdalandiradi. *Qorongʻu bashara* okkazionalizmi tasavvurimizda johil, befarosat odamni gavdalandiradi, lekin *indamaslar dunyosi* deyilganda bu birikmaning maʼnosini darrov tushunish mushkuldir. Tahlil orqali qabriston shunday obrazli ifoda orqali berilayotgani ayon boʻladi. *SHayton* va *saroy* soʻzlarining qoʻshilishidan hosil boʻlgan qoʻshma soʻz ham, Tohir Malik yaratgan asarning nomi boʻlmish *SHaytanat* ham xuddi shunday hajviy obrazlarni aks ettiradi. Bu okkazionalizmlar asosida hosil boʻlgan obrazlarni koʻz oldiga keltirgan oʻquvchi ularni yaratgan ijodkorning soʻz yaratish mahoratiga tan bermay iloji yoʻq. Demak, oʻylab, topqirlik bilan yaratilgan okkazionalizmlar lugʻaviy birliklarga nisbatan hissiy olam belgilarini aniqroq koʻrsatadi, betakror obrazlarni yaratadi, hissiyotlarni taʼsirchanroq ifodalaydi.

Ana shunday mohirlik bilan yaratilgan okkazionalizmlardan *Yaxshi Yamoni*y, *boshi buzuq*, *musulmonsheva*, *tekin hurmat*ni koʻrsatish mumkin. *Yaxshi Yamoni*y antonimik juftlik asosida yasalgan. Undagi *yomon* soʻzining *yamon* tarzida (ogʻzaki nutqda ishlatiladigan shaklning) olinishi va -iy affiksining qoʻshilishi bilan kulgili obraz yaratilgan. *Tekin hurmat* soʻz birikmasi "Hurmatning pullisi ham boʻlarkan-da, unaqasi qanaqa boʻlarkan?" degan fikr uygʻotadi. Ana shuning oʻzi okkazionalizmlarning obraz yaratishidir. Oʻquvchi odamlar orasidagi barcha munosabatlarni tasavvur qilib chiqadi. Matn esa tasavvurga toʻgʻri kelmaydigan obrazni gavdalandiradi: *Erkinjonning oʻzi hurmatga loyiq bir ish qilmagan boʻlsa ham, ota-onasi mashhur odam boʻlgani uchunoq unga ortiq hurmat bilan muomala qilganlar uchrab turadi. Bu "tekin hurmat" uni hurmatsizlikka oʻrgatadi. (P.Qodirov)*

Ostin-ustin polkovnik, bir miri kam polkovnik okkazonalizmlari esa *tekin hurmat* kabi tasavvurda bo'lmagan holatni vujudga keltiradi: —*Bor*, — *dedi bir miri kam polkovnik, sig'imi o'n litr.* (Mushtum)

Okkazonalizmlar asarning nafaqat ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi, balki muallif hissiyotini ifodalab, voqea, hodisa, predmet va tushunchalarning mohiyatini har tomonlama ochib berishga va betakror obraz yaratishga xizmat qiladi.

Ikkinchi bob yuzasidan xulosa

1. Okkazonal so'zlar eng avvalo nominativ vazifani [*futbolgoh (stadion), molshunos (zootexnik)*]; ikkinchidan xabar berish vazifasini [*ranjkom, ganjkom, olamgir, molchi*] bajaradi.

2. Okkazonal so'zlar baholash vazifasiga ko'ra uchga bo'linadi:

1. Neytral okkazonal so'zlar.
2. Salbiy bo'yoqqa ega bo'lgan okkazonal so'zlar.
3. Ijobiy bo'yoqqa ega bo'lgan okkazonal so'zlar.

3. Okkazonal so'zlar o'quvchi yoki tinglovchining hissiyotiga ta'sir etadi va badiiy nutqda obrazlilikni ifodalag uchun yaratiladi.

UMUMIY XULOSALAR

O'zbek tilida okkazonalizmlar va ularning funktsional –uslubiy va badiiy-estetik xususiyatlarini o'rganish quyidagi umumiy xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

1. Tilning lug'at tizimi nihoyatda murakkab va serqirra hodisa bo'lib, unda eski va yangi, me'yoriy va nome'yoriy, funktsional, real va noreal, individual va jamoaviy xususiyatlarga ega bo'lgan leksemalar yonma-yon mavjud bo'ladi va nutqda o'zaro munosabatda yashaydi. Mana shunday lug'aviy tizim tarkibiga kirmagan nutqiy birliklar guruhini okkazonal so'zlar tashkil qiladi.

2. Okkazional soʻzlar nutqdagi ifoda vositalaridan biri boʻlib, ular favqulodda yaratiladigan, ijodkor nutqining individual mahsuli boʻlib qoladigan, tilning meʼyoriy unsurlariga aylanmaydigan, doimo yangilik boʻyogʻini saqlaydigan nutqiy hodisadir.

3. Okkazional soʻzlar odatiy, yaʼni meʼyoriy leksikadan qoʻllanish chastotasi, nutqda uchrash darajasiga koʻra, yangiligi, adabiy normaga boʻysunmasligi va faqat nutq birligi boʻlib qolishi bilan keskin farqlanib turadi.

4. Oʻzbek tili okkazionalizmlarini tahlil qilish shuni koʻrsatadiki, okkazional soʻzlar nutqning mazmunini aniq, toʻgʻri, obrazli va barcha qirralari bilan aks ettirish maqsadida yaratiladi. Bu maʼnoda ular nutqda muayyan badiiy-estetik vazifani bajaradi.

5. Okkazionalizm bilan neologizmning qiyosi shuni koʻrsatadiki, okkazionalizmlarning yangiligi tarixiy vaqtga bogʻliq emas, ularga tildagi turli davr oʻzgarishlari taalluqli boʻlmaydi va tilning meʼyoriy leksikasi tarkibiga kirishi muammolidir. SHu sababli turli davrlarda yashab ijod etgan mualliflar yaratgan okkazional soʻzlar bugungi kunimizda ham eskirmadi, faollashmadi. SHuning uchun ular tilning doimiy yangi soʻzlari boʻlib qolaveradi. Mana shu jihatdan okkazional soʻz neologizmlardan farqlanadi. Neologizm tarixiy vaqtga nihoyatda bogʻliq hodisa, chunki har bir davrning oʻz neologizmi bor, ularni yaratuvchi muallif aniq emas, ular tildagi tarixiy oʻzgarishlar bilan bogʻliq holda oʻzgarib turadi. Masalan, *tuman*, *hokim*, *vazir*, *mahkama*, *viloyat* soʻzlari hozirgi kunda tarixiylik xususiyatini yoʻqotib, yangi maʼno bilan yana qoʻllana boshladi. SHuningdek, neologizmlar, okkazional soʻzlardan farqli ravishda, til lugʻat tarkibining toʻlaqonli aʼzosidir. Mana shunday qiyoslash natijasi koʻrsatadiki, okkazionalizm – nutq birligi, neologizm esa til birligidir.

6. Okkazionalizmlarning badiiy-estetik vazifasini tadqiq qilishdan shu narsa maʼlum boʻldiki, okkazional soʻz eng avvalo nominativ vazifani: [*futbolgoh* (stadion), *molshunos* (zootexnik)]; ikkinchidan, xabar berish vazifasini: [*ranjkom*, *ganjkom*, *olamgir*, *molchi* kabi]; uchinchidan, baholash vazifasini: [*maymuniyat*,

molshunos, xurракchilik (salbiy baho); *nur kema, oydosн, sersehr, novvot qoya* (ijobiy baho)]; shuningdek, estetik va obrazlilikni ifodalash vazifasini [*asaliston, bahornaqsh, g'azalnaqsh, baletqo'rgon, yashin so'nggi, progul tumov*] bajaradi.

7. Badiiy nutqda okkazionalizmlar tilda mavjud bo'lgan tushunchalarni boshqacha ifodalash, so'zga yangi ma'no yuklash va yana boshqa xil nutqiy talablarni kondirish uchun ishlatiladi. Masalan, *gulgun* so'zi ifodalaydigan tushunchaning *shafaqqun* orqali berilishi, *qulflamoq* lug'aviy birligi o'rnida *kalidlamok*, *xotinboz buqa* so'zining o'rnida *sigirboz*, *kollektiv* o'rnida *gullektiv*, *kallapo'sh* o'rnida *gullapo'sh* okkazionalizmlarining qo'llanilishi fikrimizning dalilidir.

8. Okkazional leksikani tadqiq qilish til lug'aviy birligi rivojidagi ba'zi qonuniyatlarni anglash, favqulodda yangi so'zlarning yaratilish xususiyatlaridagi obyektiv va sub'ektiv tomonlarning namoyon bo'lishini belgilash, so'z ijod qilishning kommunikativ talablari mohiyatini anglash, so'zlarning xususiy normadan umumiy norma doirasiga o'tishi yoki o'tmasligi sabablarini aniqlash, nutqda so'z bajaruvchi nominativ, badiiy-estetik vazifalarning xususiyatlarini ochishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI
O'ZBEK TILIDAGI ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
2. Abdurahmonov X., Mahmudov N. So'z estetikasi. –T.: Fan, 1981. –43b.
3. Abdusaidov A. Matbuot tilida okkazional frazeologizmlar // O'zbek tili va adabiyoti. – 2003. –№4. –B.84-86.
4. 3.A'zamov A., Xaqqulov I. Mas'ul so'z. Badiiy so'z shukhi. –T.: Fan, 1987.– 63 b.
5. Ahmedov A. Badiiy asar tilini o'rganish haqida // O'zbek tili va adabiyoti. – 1989.– № 9. –B.....
6. Begmatov E. va boshqalar.Adabiy norma va nutq madaniyati. –T.: Fan, 1983. – 151 b.
7. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. –T.: Navro'z I qism, 1997. –92 b.; II qism, 1998. –134 b.; III qism, 2000. –138 b.
8. Berdialiev A. So'zdagi sehr. – T.: O'zbekiston, 1996. –32 b.
9. Doniyorov X., Yo'ldoshev B. Adabiy til va badiiy uslub. T.: Fan, 1988. –208 b.
- 10.Yoriyev B. SHayxzoda poeziyasida okkazionalizmlar // O'zbek tili stilistikasidan kuzatishlar. –Samanqand, 1981. –B. 77-80.
- 11.Jumanazarov Yu. Til va uslub. –T.: Fan, 1973. –135 b.
- 12.Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. –T.: O'qituvchi, 1993.–32 b.
- 13.Madrahimov I. O'zbek tilida so'zning serqirraligi va tasniflash asoslari: Filol. fanlari nomzodi ... dis. –T., 1994.– 141 b.
- 14.Mirtojiyev M. Okkazional ma'no // O'zbek tilshunosligi masalalari. ToshDU Ilmiy ishlar to'p. – T., 1973. CHiq. 443. –B. 90-98.
- 15.Samadov Q. Oybekning til mahorati. –T.: Ped. Instituti, 1981. –104 b.

16. Toshaliyev I., Jo'raboeva M. Hozirgi o'zbek tilida okkazional so'z yasalihi // O'zbek tili stilistikasining aktual masalalari. – T.: O'qituvchi, 1983.– B. 29-49.
17. Toshaliyeva S.I. O'zbek tilida okkazional so'z yasalihi: Filol. fanlari nomzodi ... dis. – T., 1998. – 170 b.
18. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev SH. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: O'zbekiston, 1992. –399 b.
19. Umurqulov B. She'riyatda okkazional so'zlar // O'zbek tilining leksik-grammatik xususiyatlari.. – T.: Fan, 1988.–B.89-93
20. Umurqulov B. Badiiy adabiyotda so'z. –T.: Fan, 1993. –132 b.
21. CHoriyev B. G'.G'ulom she'riyati tili. –T.: Fan, 1990. –112 b.
22. SHodieva D. Muhammad Yusuf she'rlaridagi affiksatsiya usuli bilan hosil qilingan okkazionalizmlar // Til va adabiyot ta'limi. – T., – 2004. –№5.– B. 48-54.
23. O'zbek tili leksikologiyasi. T.: Fan, 1981. –313 b.
- 24.45. O'zbek tilining izohli lug'ati. I- II tom. –M.: Rus tili, T. I. 1981.–631 b. T. 2. 1981.– 715 b.
25. Hojiev A.Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – T.: O'zME, 2002. – 56 b.

INTERNETDAN OLINGAN MATERIALLAR:

1. http://www.ut.uz/eng/today/europe_recognizes_her_discovery.mgr
2. http://www.uzbekistan.be/press-releases/14-2008.html#_6 SOCIETY
3. <http://www.sfs.uni-tuebingen.de/~lothar/lexbuch/Seminar01/skripte/onomasio.html>
4. <http://www.schneid9.de/sprache/linguistik/ling11.pdf>; www.uni-leipzig.de/~fsger/materialien/Texte/Lexikologie.pdf
5. http://lamp.semiotics.ru_gv_ch2/htm
6. http://www.i-ru/biblio/archive/ter_jasik/01.aspx (may, 2004)